

"XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIES, SCIENCE AND EDUCATION DEVELOPMENT DURING THE PAST 20 YEARS"

Konferensiyasi



BIZNING YONALISHLARIMIZ:

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyat fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisodiyot
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

INDEKSLAYMIZ:



[HTTP://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM](http://universalpublishings.com)



+998 88 808 21 07



**«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR» ilmiy konferensiyasi:**

31.05.2023 yil.

Ushbu to'plamda **«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 4-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'rilingiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**





TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasи mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o’g’li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqorayev Samariddin Sadridin o’g’li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasи dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbanov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.





Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasi mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinnbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)





**ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Babantayev Aloviddin Aral o'g'li

**Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 46-umumi o'rta ta'lif maktabining ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

Xonimova Go'zal Sherali qizi

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 46-maktab o'quvchisi

Annotatsiya: Maqola ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va dars jarayonida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, "Macro Media Flash", "GIF animation", "Microsoft Front Page", "Adobe Photoshop", "Microsoft Power Point", dasturiy ta'minot, interaktiv

METODLAR

Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash maqsadida ta'lif sohasiga alohida e'tibor berildi.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lif tarbiyasiga bog'liq. Bu esa vatanimiz kelagi -farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga e'tibor bergenliklarini, 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" - deb nomlaganliklarida ham ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda ona tili darslarini rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. 2020 yil 29-dekabrdagi Prezident Murojaatnomasida " 6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi. 6 yoshli bolalarning 82% i (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlovga jalb etiladi", "Ona tili darslarida DTS o'rniga bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dastur"i joriy etiladi" - deb rejalashtirishning o'zi buning dalilidir.

Yurtimiz ta'lif tizimida maktab fanlarini o'rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish targ'ib etilmoqda. Axborot texnologiyalari ta'lifning universal vositasi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, ularni o'qishga, o'rganishga, shaxsiy xususiyatlarini rivojlashtirishga va bilishga qiziqishlarini orttirishga





yo'naltirishda muhim vazifa bajaradi. AKT o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, ijodiy xususiyatlari, nazariy bilimlari va refleksiv tafakkurini kengaytirishga katta ta'sir qiladi. Asosan, AKTlar o'quvchilarning obrazli fikrlashlarini orttiradi va ilmiy bilimlarni yanada osonroq, ular bilam chambarchas holda o'zlashtirishlariga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lif jarayoniga joriy etilishidan asosiy ko'zlangan maqsad - zamonaviy ta'lif tizimini yo'lga qo'yishdir.

Bilamizki, yoshlar - kelajak poydevori. Ona tili darslari esa, ta'lif jarayonlarining poydevoridir. Shunday ekan, ona tili darslari o'qituvchilarining sharaflı kasbi o'z zimmasiga muhim va mas'uliyatli e'tibor talab qiladi. Chunki, o'quvchilar yuqori sinflarda ta'lif tizimini o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich ko'nikmalarni, o'qish, yozish, hisoblashlarni yuqori darajada bilishlari lozim.

Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, o'quvchilarning zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nani yetuk shaxs bo'lib yetishishiga, kompyuterdan erkin foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar an'anaviy dars jarayonida AKTning didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonlarini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ular ta'lifning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi. Dars jarayonlarida tayyor multimediali dasturlar va kompyuter ta'limi darturlaridan foydalanib turli xil taqdimotlar, loyihamlar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarida qo'llash mumkun. O'quv jarayonini yangi interfaol usullar, axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish, masalan, dars jarayonida multimediani qo'llash, internet tarmog'idan foydalanish dars mashhg'uotlarining to'la qonli o'tilishiga o'z samarasini beradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:- ona tili darslarida multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'lifning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;





- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Har bir o'qituvchi ijodkor va izlanuvchan bo'lishi lozim. Har bir darsiga yangilik bilan kirishi va puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Negaki, o'quvchilar bir xillikdan zerikishadi va darsga bo'lgan munosabati susayadi. Natijada, darslarning samaradorligi pasayadi. O'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalangan holdagi darslarning o'mi quyidagilarda aks etadi: - Vaqtni to'g'ri taqsimlash;

- O'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash;
- Berilayotgan axborot ko'lами oshirish;
- O'quv topshirig'i turlarini kengaytirish;
- Sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- Kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Elektron qo'llanmalarining "Macro Media Flash", "GIF animation", "Microsoft Front Page", "Adobe Photoshop", "Microsoft Power Point" kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki, ularda rangli, ovozli tasvirlar va harakatli tasvirlar yaratish ko'lami keng. Bunday dasturiy ta'minotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsni o'zlashtirishlarini sifatli bo'lishiga va tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Ona tili darslari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlar o'quv jarayonida juda keng qo'llanilmoqda.

Masalan, o'qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'rgatishda turli xil taqdimotlardan va ko'rgazmali qurollardan foydalanilmoqda.



Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lrim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalilanidigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta'limga darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter

Texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagи topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarini xronologik ketmакetlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida kompyuter yordamida mayjud materiallarni turli xil shaklda: slaydlar, video va audio parchalar diagrammalar, jadvallar, musiqiy ko'rinishlarda taqdim etiladi. Kompyuter yordamida dars jarayonini tashkil etilishi o'quvchilar tasavvuri va xotirasiga kuchli ta'sir qilib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, darsni qiziqarli jarayonga aylantirib, o'quvchilarni u yoki bu tarixiy davrga olib kirish va voqealar ichida go'yoki ishtirok etish imkonini beradi.

Bugungi kun ta'limi o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'limg-tarbiya berish va ona tili darslarida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha fikrlarimizni bayon etamiz.

Quyida ona tili darslarida AKTdan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini ko'rsatib o'tamiz:

- ona tili darslarida so'zlarning qanday o'qilishini tasvirlangan taqdimot yoki kichik ertak va hikoyachalar o'qilayotgan paytda o'sha ertakka mos multimedia qo'yish, harflarni tog'ri va chiroyli yozish aks ettirilgan qisqagina videoroliklardan foydalanish mumkin.

- ona tili darslarida animatsiyali masalalardan foydalanish, hisob kitobli o'yinlar tashkil etish slaydlaridan foydalanib mashqlar bajarishni o'rganishimiz mumkin.

- tabiatga bag'ishlangan mashqlarda tabiat hodisalari aks etgan yoki tabiatni asrashga tarbiyaviy jihatdan tuzilgan qisqagina videoroliklar orqali foydalanish mumkin.

"Videotopishmoq" metodi - ushbu metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar ketma-ketligi amalga oshirilishi lozim:





- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariiga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun RTM tomonidan yaratilgan "Alifbo saboqlari", "Aljabr" kabi elektron darsliklar qiziqarliligi, sodda va tushunarligi, o'quvchilarni keng mushohadada mantiqiy fikr yuritishga chorlashi bilan boshqa dasturlar bilan ajralib turadi.

"Alifbo saboqlari" - 1-sinf o'quvchilariga moslangan bo'lib, "Alifbo"ni o'rgatuvchi dastur hisoblanadi. Bu dastur o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish (harfni talaffuz qilish, o'sha harf bilan boshlanadigan, tugagan yoki qatnashgan so'zlarni o'rganish va husnixat asosida yozish) ga yordam beradi. Bundan tashqari, mavzular o'tib bo'lingach mustahkamlash uchun so'zlar beriladi. U so'zni topib yozish kerak bo'ladi. Yana qo'shimcha tarzda mavzu yuzasidan testlar ham beriladi. Natijada, o'quvchi, nafaqat o'qiydi, yozadi, balki, kompyuterda klaviaturadan foydalanish va test yechish ko'nikmalari rivojlanadi.

XULOSA.

Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchiga mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga, darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga, darsda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, mantiqiy mushohadalarni kengaytirishga va shu kabi zamonbardosh, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi. Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqatli va har tomonlama mukammal komil inson bo'lishga undaydi. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, darslarni ilg'or, innovatsion, pedagogik hamda kommunikatsiya texnologiyalari asosida sifatli ta'lim-tarbiya berishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T., 2021 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1S7-sonli Qarori. - T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y.
3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2016.



4. Olimov Q.T. va boshqalar. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. - Toshkent.
5. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya.





Neft-gaz zaxiralari va resurslarini baholash

Toshboyev Begzod

Termiz muhandislik-texnologiya instituti Energetika va konchilik fakulteti Neft va gaz ishi yo'nalishi talabasi

Tovasharov Feruz

Termiz muhandislik-texnologiya instituti Energetika va konchilik fakulteti Neft va gaz ishi yo'nalishi talabasi

Aliyev Bobur

Termiz muhandislik-texnologiya instituti Energetika va konchilik fakulteti Neft va gaz ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada IMRAD usuli yordamida neft va gaz zahiralari va resurslarini baholashning chuqur tahlili berilgan. Ushbu maqolada biz neft va gaz sanoatida aniq baholash usullarining ahamiyatini o'rganamiz, IMRAD usulini muhokama qilamiz, uning zaxira va resurslarni baholashda qo'llanilishini ta'kidlaymiz va asosiy omillarning har tomonlama ko'rinishini taqdim etamiz. Maqola qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va neft va gaz zahiralari va resurslari salohiyatini maksimal darajada oshirishda IMRAD usulining roli haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan. Neft va gaz zahiralari va resurslarini to'g'ri baholash energetika sanoatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola ishonchli ma'lumotlar, ilg'or metodologiyalar va me'yoriy ko'rsatmalarning ahamiyatini ta'kidlab, baholash usullarini chuqur tahlil qiladi. U jahon neft va gaz zahiralari va resurslariga oid statistik ma'lumotlarni taqdim etadi, namunaviy baholash yondashuvini muhokama qiladi va zaxira va resurslar miqdorini ko'rsatadigan jadvalni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola orqali o'quvchilar baholash jarayoni va uning strategik qarirlarni qabul qilishdagi ahamiyati haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: Neft zaxiralari, Gaz zahiralari, Neft resurslari, Gaz resurslari, Baholash usullari.

Abstract:

This article provides an in-depth analysis of the estimation of oil and gas reserves and resources using the IMRAD method. In this article, we explore the importance of accurate estimation techniques in the oil and gas industry, discuss the IMRAD method, highlight its application in reserve and resource estimation, and present a



comprehensive overview of the key factors involved. The article aims to provide valuable insights into the IMRAD method's role in supporting decision-making processes and maximizing the potential of oil and gas reserves and resources. Accurate estimation of oil and gas reserves and resources plays a crucial role in the energy industry. This article provides an in-depth analysis of estimation techniques, highlighting the significance of reliable data, advanced methodologies, and regulatory guidelines. It presents statistical insights into global oil and gas reserves and resources, discusses a sample estimation approach, and includes a table showcasing reserve and resource quantities. Through this article, readers will gain a comprehensive understanding of the estimation process and its importance in strategic decision-making.

Keywords: Oil reserves, Gas reserves, Oil resources, Gas resources, Estimation techniques.

Аннотация:

В данной статье представлен углубленный анализ оценки запасов и ресурсов нефти и газа с использованием метода IMRAD. В этой статье мы исследуем важность точных методов оценки в нефтегазовой отрасли, обсуждаем метод IMRAD, освещаем его применение для оценки запасов и ресурсов и представляем всесторонний обзор ключевых факторов. Цель статьи — предоставить ценную информацию о роли метода IMRAD в поддержке процессов принятия решений и максимизации потенциала запасов и ресурсов нефти и газа. Точная оценка запасов и ресурсов нефти и газа играет решающую роль в энергетической отрасли. В этой статье представлен углубленный анализ методов оценки, подчеркивающий важность надежных данных, передовых методологий и нормативных рекомендаций. В нем представлены статистические данные о мировых запасах и ресурсах нефти и газа, обсуждается подход к выборочной оценке, а также содержится таблица, демонстрирующая количество запасов и ресурсов. Благодаря этой статье читатели получат всестороннее представление о процессе оценки и его важности для принятия стратегических решений.

Ключевые слова: Запасы нефти, Запасы газа, Ресурсы нефти, Ресурсы газа, Методы оценки.

Kirish.

Neft va gaz zahiralari va resurslarini baholash neft sanoatining muhim jihatni hisoblanadi. Aniq baholash usullari qidiruv va ishlab chiqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonlari uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. IMRAD usuli, ilmiy



maqolalar uchun tuzilgan asos, tadqiqot natijalarini tartibga solishda samarali ekanligini isbotladi. IMRAD tizimini neft va gaz zaxiralari va resurslarni baholashda qo'llash tizimli tahlil qilish imkonini beradi va neft salohiyati haqida umumiy tushunchani kengaytiradi. Ushbu maqola IMRAD usulini qo'llash, uning neft va gaz zaxiralari va resurslarini baholashdagi ahamiyatini o'rganadi. Neft va gaz zahiralari va resurslarini baholash uglevodorod kollektorlarining salohiyatini baholash uchun juda muhimdir. To'g'ri hisob-kitoblar investitsiya qarorlari, loyihani rejalashtirish va resurslarni boshqarish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu maqola neft va gaz sanoatida ishonchli baholash usullari, statistik tahlil va tartibga soluvchi ko'rsatmalarning ahamiyatini o'rganadi. Manfaatdor tomonlar tegishli metodologiyalarni tushunib, ishlab chiqarishni optimallashtirish va rentabellikni oshirish uchun asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.



Usullari.

Neft va gaz zahiralari va resurslarini baholash turli metodologiya va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'linda hajmli baholash, materiallar balansi va ishlab chiqarishning pasayishi tahlili kabi keng tarqalgan asosiy usullarning umumiy ko'rinishi keltirilgan. Shuningdek, u geologik va geofizik ma'lumotlarning integratsiyalashuvi, rezervuar tavsifi va aniq baholash uchun ilg'or simulyatsiya vositalarining ahamiyatini muhokama qiladi. Bundan tashqari, izchil va ishonchli baholash amaliyotini ta'minlashda tartibga soluvchi ko'rsatmalar va standartlarning roli ta'kidlangan.

Namuna baholash yondashuvi:



Baholashning namunaviy yondashuvi zaxiralar va resurslarni baholashning asosiy usullaridan biri bo'lgan hajmli baholashdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Keling, taxminiy neft konini ko'rib chiqaylik:

Maydon nomi: XYZ neft koni

Maydoni: 50 kvadrat kilometr

O'rtacha aniq to'lov qalinligi: 25 metr

G'ovaklik: 20%

Suv bilan to'yiganligi: 30%

Yog 'hosil bo'lish hajmining koeffitsienti: 1.1

Qayta tiklash faktori: 30%

Ushbu parametrlardan foydalanib, yog 'joyida (OIP) quyidagicha hisoblash mumkin:

$$OIP = \text{Maydon} * \text{Sof to'lov qalinligi} * \text{G'ovaklilik} * (1 - \text{Suv bilan to'yiganlik})$$

$$OIP = 50 \text{ kv km} * 25 \text{ m} * 0,20 * (1 - 0,30) = 125 \text{ million barrel}$$

Qayta tiklash koeffitsientini qo'llagan holda, qayta tiklanadigan taxminiy zaxiralar quyidagicha bo'ladi:

$$\text{Qayta tiklanadigan zahiralar} = OIP * \text{Qayta tiklash omili}$$

$$\text{Qayta tiklanadigan zaxiralar} = 125 \text{ million barrel} * 0,30 = 37,5 \text{ million barrel}$$

Zaxira va resurslarni baholash natijalari:

Jadval: XYZ neft koni uchun hisoblangan neft zahiralari va resurslari

Neft-gaz koni	Tasdiqlangan zahiralar (million barrel)	Ehtimoliy zaxiralar (million barrel)	Mumkin zahiralar (million barrel)
XYZ neft koni	37,5	10,2	5,9

Natijalar:

Natijalar bo'limida IMRAD usuli yordamida baholash natijalarining keng qamrovli tahlili keltirilgan. U birlamchi va ikkilamchi qayta tiklash usullarini baholash, zahiralar va resurslar miqdorini aniqlash, noaniqlik va xavf omillarini baholashni o'z



ichiga oladi. Natijalar taqdimoti qaror qabul qiluvchilarga neft va gaz konlarining salohiyati haqida qimmatli tushunchalar berishga qaratilgan va samarali loyihalarni rejalashtirish va resurslarni taqsimplashni qo'llab-quvvatlaydi.

Global statistika:

Neft va gaz zahiralari va resurslarining ko'lami va ahamiyatini tushunish uchun ba'zi global statistikani ko'rib chiqaylik. 2021 yil holatiga ko'ra, jami tasdiqlangan neft zaxiralari taxminan 1,7 trillion barrelni tashkil etadi, eng katta zaxiralar Venesuela, Saudiya Arabiston va Kanadada topilgan. Boshqa tomondan, global tasdiqlangan gaz zaxiralari taxminan 7,669 trillion kub futni tashkil qiladi, eng katta zaxiralar Rossiya, Eron va Qatarda. Ushbu statistik ma'lumotlar butun dunyo bo'ylab uglevodorod resurslarining ulkan salohiyatini ta'kidlaydi.

Munozara:

Muhokama bo'limida baholash natijalarining oqibatlari va ularning neft va gaz sanoatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. U ishlab chiqarish strategiyasini optimallashtirish, xarajatlarni minimallashtirish va rentabellikni oshirishda zaxira va resurslarni aniq hisoblashning ahamiyatini o'rghanadi. Bundan tashqari, u baholash texnikasi bilan bog'liq qiyinchiliklar va cheklovlarni ko'rib chiqadi va bu sohada doimiy takomillashtirish va innovatsiyalar zarurligini ta'kidlaydi. Bo'limda, shuningdek, rivojlanayotgan texnologiyalar va bozor dinamikasini aks ettirish uchun zahira va resurslar hisob-kitoblarini muntazam yangilash muhimligi muhokama qilinadi.

Jadval: Zaxira va resurslarni baholash natijalariga misol

Neft/gaz konlari	zahiralari (million barrel neft ekvivalenti, Mmboe)	Resurslar (Mmboe)
A maydoni	500	1000
B maydoni	250	750
C maydon	800	2000

Xulosa:

Neft va gaz zahiralari va resurslarini to'g'ri baholash energetika sohasida samarali qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir. Ishonchli ma'lumotlar, ilg'or metodologiyalar va me'yoriy ko'rsatmalardan foydalangan holda manfaatdor tomonlar uglevodorod rezervuarlarining salohiyatini baholashlari mumkin. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, jahon neft va gaz zahiralari va resurslari katta. Namuna baholash usullaridan, masalan, hajmli baholashdan foydalangan holda, muayyan maydonlarni baholash mumkin. Taqdim etilgan namunaviy baholash natijalari resurslarni har



tomonlama baholash uchun tasdiqlangan, ehtimoliy va mumkin bo'lgan zaxiralarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar:

1. Neft muhandislari jamiyati. (2018). Neft resurslarini boshqarish tizimi. <https://www.spe.org/en/industry/reserves-classification> dan olindi
2. AQSh Energetika axborot boshqarmasi. (2022). Xalqaro energetika statistikasi. <https://www.eia.gov/international/data/world> dan olindi
3. Babamuratov, B. E., & Ubaydullayeva, N. (2022). NEFT VA GAZ ZAXIRALARI VA RESURSLARINI BAHOLASH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 167-171.
4. o‘g‘li Rustamov, M. M. NEFT VA GAZ ZAXIRALARI VA RESURSLARINI BAHOLASH.





SIFATLI TA'LIM -TARAQQIYOT POYDEVORI

Nizomiy nomidagi TDPU "Amaliy psixalogiya" kafedra o'qituvchisi

Saidova Nargiza Ismatulla qizi

Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika va psixalogiya" fakulteti talabasi

Shermo'minova Rohila Fayzulla qizi

Annotatsiya: Mamlakat taraqqiyotining yagona yo'li ilm va ma'rifat. Ilm va ma'rifat bo'lgan jamiyatda ma'naviyat ham yuksaladi, davlat taraqqiy topadi, inson qadri ulug'lanadi. Bunga eltadigan yo'l esa ta'lism va tarbiyadir Ushbu maqola ham shu mavzuda.

Kalit so'zlar: jamiyat, ma'naviyat, murojaatnoma, poydevor, strategiya, olimpiada, texnikum, mehnat bozori, kreativ fikrash, pedagog.

Mustaqillikka erishganimizni dastlabki yillardan boshlab mamlakatimizda ta'lism sohasiga katta e'tibor berildi. Qisqa muddat ichida mamlakatimizda bu soha bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va yuksak natijalarga erishildi. Mana bugunga kelib o'qituvchi kasbining obro'-e'tibori yuksaldi, qadri oshdi va yana ularni moddiy rag'batlantirishning yangi tizim va mexanizmlari ishlab chiqildi va joriy etilmoqda.

Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi direktori, Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar Parlamenti Ilm-fan, va madaniyat va kitobxonlik masalalari komissiyasi raisi Sevara Mahmudova ham bu mavzu bo'yicha o'z fikrini bildirgan "Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqga qilgan Murojaatnomasida 2023-yilga" Insonga e'tibor va sifatli ta'lism yili", deb nom berilgani ham, avvalo ta'lism sohasida boshlangan ulkan ishlarimizni izchil davom ettirishga qaratilganni bilan ahamiyatlidir. Aytish joizki, bu o'z navbatida, soha vakillari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. .

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, ta'lism sifatini oshirish -- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. 2023 -yilda ham maktablarda ta'lism sifatini oshirish, o'qituvchi kasbining nufuzini ko'tarish hamda ular sharoitini yaxshilash eng asosiy vazifalardan biriga aylanadi.

Prezidentimiz o'qituvchilarining maqomi, ularning sha'ni qadr-qimmatini himoya qilish Konstitutsiyada alohida belgilanishi zarur, deb alohida ta'kidladi. Yana bir xushxabar shundan iboratki, 2023-yildan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitiladi.





Davlatimiz rahbari bolalarimiz maktada ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirishi, kompyuterda ishlashni puxta o'r ganishi, ularni kasb-hunarga, , san'at va madaniyatga qiziqtirish, o'quvchilarda erkin kreativ fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidladi.

2023- yildan maktab ta'limi xalqaro ta'lim dasturlari asosida tubdan isloh qilinadi. Darsliklar yangilanadi, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalari joriy etiladi. ayni shu maqsadda alohida ilmiy-institut va laboratoriylar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Prezidentimiz yoshlarning zamonaviy kasb -hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'lim sohasidagi navbatdagi yo'nalish ,deb baholadi. Murojaatnomada ta'kidlanganidek, ayni paytda, maktab bitiruvchilarining 50foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelyapti. Mamlakatimizda hozirgi kunda 700dan ortiq kasb -hunar maktabi, kollej va texnikumlar faoliyat yuritmoqda. Davlatimiz rahbari ana shu imkoniyatdan samarali foydalanish zarur, deb aytdi. Bu o'z navbatida "Barkamol avlod" bolalar maktablari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Ayni paytda joylarda 219 ta "Barkamol avlod" maktablari faoliyat yuritmoqda. Ularda 6 yo'nalish bo'yicha 368 ming nafar o'quvchi kasb -hunar o'r ganmoqda. Shu o'rinda "Barkamol avlod" bolalar maktablaridagi iqtidorli o'quvchilar bazasi shakllantirildi. Ularning soni bugungi kunda 1145 nafarga yetdi. Shundan 143 nafari xalqaro olimpiada va tanlovlarda , 1002 nafari respublika miqyosidagi musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritdi.

"Barkamol avlod" bolalar maktablari zimmasidagi vazifalar ko'لامи bugungi kunda yanada oshgani sir emas. Endigi maqsadimiz bolalar bo'sh vaqtini foydali ishlarga jalb etish, iqtidorli bolalarga ko'maklashish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ijod qilishlari uchun qulay shart-sharoit va imkoniyat yaratishdan iborat".

Hozirgi kunda ta'lim sohasi bo'yicha juda ko'p qarorlar qabul qilingan, ulardan eng oliysi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini" Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi qarori bo'lib. Bu qaror biz yoshlarning hayotimizga juda katta o'zgarishlar olib keldi . Qaror mazmuniga keladigan bo'lsam, masalan, 2023 -2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma -bosqich umumiyoq o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishslash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotiga kiritilishi keyin yana umumiyoq o'rta ta'lim muassasalarining 1-4 sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar





bo'yicha o'qitish, 5-9 sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch tushuncha berish, 10-11 sinflarda o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyotini joriy qilish.

Yana shu qarorning bir bandi qiziqishimni uyg'otdi ya'ni bu 2023-2024 yildan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi. Bunda, ovqat turlari o'quvchilarning yoshi va sog'lig'i holatiga ko'ra meyorlangan holda yetkazib berilishi hamda sanitariya talablariga javob berishi ta'minlanishi hisoblanadi. Bundan tashqari yana bu qarorda 2023-yil 1-apreldan boshlab mакtabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish maqsadida, yangi mакtabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ko'p kvartirali uylarning noturar qavatlarida yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va xususiy sherikchilik loyihasi doirasida ilaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat mакtabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurgan sherik tomonidan ushbu binoning mazkur loyiha uchun bank kreditlari bo'yicha garovga qo'yilishiga oid cheklowlarni bekor qilish. Professional ta'lim tizimi ni rivojlantirish, mehnat bozori va ish beruvchilarining talablariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash maqsad qilib qo'yildi. Va 2023 yil 1-sentyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash tizimi talablariga to'liq javob beradigan 1tadan namunaviy professional ta'lim muassasalari faoliyati qo'yilishi belgilab qo'yildi. Professional ta'lim muassasalari pedagoglarini 2023-yil 1-aoreldan boshlab bazaviy tarif stavkalari mos ravishda o'rta ta'lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga, professional ta'lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifaga ega bo'limgan oliy ma'lumotli hamda oliy ma'lumotga ega bo'limgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishlicha umumiyo'rta ta'lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifali o'qituvchisi , oliy ma'lumotli o'qituvchisi hamda o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchisining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtirilishi qarorda belgilab qo'yildi.

Xulosa; Prezidentimizning ta'lim sohasi bo'yicha qilgan ishlari, qarorlari, farmonlari, qonunlari juda ko'p ularni tahlil qilish uchun 100betlik maqola yozsak ham kamlik qiladi. Yurtboshimiz ta'limni birinchi darajaga qo'ydi ya'ni biz yoshlarni bilimli , jahon standartlariga javob beradigan kerakli kadr bo'lib yetshishimizni xohlaydi. Muxtasar qilib aytganda, yoshlar qalbiga ilm -fan ziyosini singdirib, ularni el -yurtga munosib insonlar etib tarbiyalash, xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo





hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash har bir ota -ona, xonodon va mahalla zimmasidagi ham farz va qarz hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati;

1. 2022-2023 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insongga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Prezident qarori. 2022.
2. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 -sonli qarori
3. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.O'quv qo'llanma.-T.:O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti,2006.160b.





Muharrir asarning birinchi o'quvchisi

Shamsiddinova Hilola Ilhom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Usmonova Ziyoda Ilhomjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada muharrirning nashriyotga keltirilgan qo'lyozmani tahlil qilish usullari yoritilgan. Muallif va muharrir orasidagi munosabatlarga aniqliklar kiritilgan.

Kalit so'zlar: Asar, muharrir, muallif, kitob, nashriyot, adabiy til, fikr, tuzatish, g'oya, shoirlar.

Annotation: This article describes in detail how an editor analyzes an article submitted for publication, why he makes changes to the work, or why he does not make changes to some works.

Key words: Work, editor, author, book, publisher, literary language, opinion, correction, idea, poets.

Аннотация: В этой статье я подробно расскажу о том как редактор анализирует цитируемую статью для публикации почему он вносит изменения в работу или почему он не вносит изменения в некоторые работы.

Ключевые слова: автор, книга, литературный язык, мысль, исправление, идея, поэт.

Bizning zamonda adabiyot bor ekan Alloh yaratgan olam, u yerda tinim bilmay u yoqdan bu yoqqa mehnat qilib, yuradigan insonlar poklanib, dunyoni anglab, hayotimiz qancha hikmatlarga boy ekanligini bilib tushunib boramiz. Axir adabiyotni ichidagi oltinga teng kitoblar bir insonni dunyoqarashini o'y-fikrlarini o'zgartirib yuboradi. Albatta yaxshi tomonga. Mana shu biz aytib o'tgan kitoblarimiz muallif tomonidan, qanchadan qancha bosqichlardan o'tgandan so'ng bizni keng fikrlashga majbur qiladigan vositaga aylanadi.

Qo'lyozmalar nashriyotda kitob holiga keladi. Muallif o'z asarini qo'lyozma sifatida nashriyotga - birinchi o'quvchisini oldiga olib boradi. Asarning birinchi o'quvchisi bu - muallifdir. Muallifdan bir asarni o'rganishda, uni xatoliklarini to'g'rakashda juda katta bilim, ko'nikma talab etiladi. Asarni, she'rni, hikoyani tuzatishda ular xuddi zargarlarday ish olib borishi zarur. Zargarlar ham o'zlari yasagan





buyumni juda ehtiyojkorlik bilan bezatadi, nojoya ketgan qismini mohirlik bilan yon atrofiga shikast yetkazmasdan to'g'rileydi. Agar qo'pol harakat qiladigan bo'lsa, boshqa joylari ham buzilib, sinib ketishi mumkin. Mualliflik ish ham xuddi shunday, balki undan ham ko'proq mas'uliyatni talab qiladigan kasbdir. Avvalambor, muallif bilimli, har bir sohani chuqur o'rgangan, mantiqan chuqur fikrlaydigan, dunyoqarashi keng inson bo'lishi zarur. Endi misol tariqasida olingan parchani tahlil qilish, unda kuzatilgan xato va kamchiliklarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Adabiy tilning o'zidagi rivojlanish qonuniyatlari bilan adabiy til normasidagi davr oshishi bilan paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir".

Birinchidan bilan ko'makchisi uch marta qo'llangan, lekin bu takror qo'llash noto'gri. Bu matnda bilan ikki o'rinda ayiruv bog'lovchi vazifasini, bir o'rinda esa ko'makchi vazifasini bajaradi. Ikkinci o'rindagi "bilan" noto'g'ri qo'llash tufayli mantiqan nomutanosiblik keltirib chiqargan. Bu o'rinda muharrir jumlanı mazmunini saqlab qolgan holda ko'makchilarni ma'nodoshlari bilan almashtirishi lozim. Muharrirlardan talab etiladigan narsa shuki, muallifning fikr-g'oyasini yo'qotib yubormaslik. Muallif o'zi yaratgan g'oya saqlanib qolishi zarur. Muharrir, ayniqsa badiiy asar qo'lyozmasiga ehtiyojkorlik bilan yondashmog'i kerak. Garchi ma'noviy-semantic va uslubiy tuzilishi bo'yicha murakkabligiga ko'ra oddiy xatoliklarga yo'l qo'yishlik ehtimoli mavjud bo'lmasa-da, afsuski, ortiqcha ehtiyojkorlik tufayli ko'pincha badiiy asarlarda ular ommaviy nusxada chiqib bo'lganidan so'ng xatoliklar uchrab turadi. Qo'lyozmani nashrga muvaffaqiyatli tayyorlash, xusan, matnga tuzatishlarni kiritish muharrirlik tahlili bo'yicha tavsiyalarga binoan mazkur ishda muallifning faol ishtirokiga ko'ra amalga oshiriladi. Muallif qandaydir muammoni yoritish bo'yicha qo'shimchalar qilishi, aniqlik kiritishi anglashilmovchilikni tushuntirishi va boshqa muharrir ishida yuz bergen noaniqlikni aniqlashtirishi mumkin. Xullas, qo'lyozmaga kiritiladigan barcha tuzatishlar muallif bilan kelishib olinishi kerak.

Eng tajribali muallif ham materialga berilib ketishi, yetarlicha ilmiy obyektivlikdan chetlab ketishi mumkin. Muallif uchun o'z asarining har bir kichik detallari, unsuri juda qadrli hisoblanadi, shunga ko'ra u muharrirning biror unsur, qismdan voz kechish bo'yicha taklifni qiyinchilik bilan qabul qiladi yohud rad etadi. Ba'zan muallif va muharrir tomonidan mezonlar birdek qabul qilinsa-da, ammo mazkur mezonlarni muayyan asarga tadbiqi talqinida kelishmovchilik chiqishi mumkin: biri uchun to'g'ri, ikkinchisi uchun noto'g'ri tuyuladi.

Yuqorida aytildiganlar, bizningcha, muharrir va muallif munosabatlarining butun murakkabligini tasavvur etish uchun yetarlidir. Demak, muharrirning muallif bilan





hamkorlik qilishidagi o‘ziga xos tartib- qoidalarni ya’ni muharrir odobi (etikasi) me’yorlarini belgilash zarurati dolzarblik kasb etadi. Albatta, bu qoidalar huquqiy davlatdan fuqorolik jamiyatiga o‘tish tamoyillari, milliy mafkura va milliy qadriyatlar va yoki mentalitet asosida yaratiladi.

Muharrirlik odobi tanqid odobi bilan ancha umumiyligi jihatlarga ega. “Adabiy asarlar xususidagi fikrlar tanqidchi zimmasiga muayyan ma’naviy mas’uliyat yuklaydi, achchiqqina tegadigan halollik, dalillanganlikni talab etadi. Har qanday chanqib olish, me’yordan oshirib yuborish, asossiz qiyoslash, iqtibosini o‘z bilganicha olish, bir yoqlama (o‘z g‘oyasi, nuqtayi nazari, saviyasi doirasida) yondashish, yorliq osish, quruq so‘zdan iborat da’vo - adabiy asar tub mohiyatiga mutlaqo munosib emas”

Lekin, oldida to’la yakunlangan, o’quvchi hukmiga havola qilingan asar turgan tanqidchidan farqli o’laroq muharrir kitobning yaratilishi jaroyonida bevosita ishtirok etadi, bu jaroyonga faol ta’sir ko’rsatadi.

Shunga ko’ra bu ishda o’ta nozik did, xushmuomalalik va ziyraklik talab etiladi. Samimiylilik keskinlikdan, piching va dashnomidan holi bo’lishi lozim. Xolislik (to’g’rilik) albatta zarur, biroq, muallif sha’ni kamsitilmasligi, uning, umuman ijodiy imkoniyatiga shubha solmasligi kerak.

Muharrir muallifga nisbatan xayrixohlik, hurmat muhitini yuzaga kelishida albatta ishtirok etishi, tabiiy. Busiz noshirlik odobini tasavvur etish mushkul. Muallifga samimiyat nashriyotlaming tahririyatdan boshqa bo‘lmalari, hatto, hisobxona tomonidan ham ko’rsatilishi lozim.

Qo’lyozma muallifi qaysidir sabablar bilan muharrirga yoqmagan taqdirda ham, u o‘z tuyg‘ularini mutlaqo oshkor etmasligi kerak, bunga haqi ham yo’q. Muharrirlik odobiga qo’yiladigan yana bir talab, u kayfiyatga berilmasligi shart, hatto muallifni ko’rganda unda qandaydir asabiylik uyg’onmasligi ham zarur.

Xulosa qilib aytish kerakki, muharrirlik kasbi, uyda o’tirib bir asarni yaratishdan ham qiyinroq. Men bu gapim bilan mualliflik oson demoqchi emasman. Sababi ikki kasb egalarining birgalikda, hamjihatlikda bajargan ishi bir insonni, nafaqat bir insonni balki, butun xalqni ma’naviyatini o’stiradi, dunyoga qarash ko’lamini kengaytiradi. Bular yaratgan ijodiy ishning bir satrini o’qigan inson, o‘ziga olam-olam ma’no oladi. Agar ikkisining ham fikri bir joydan chiqmasa biz insonlarni kitobga bo’lgan qiziqishimiz so’nib, qo’limizga kitob ushlagimiz kelmay qoladi. Shuning uchun ham men muallif hamda muharrirni, oy va yulduzlarga o’xshataman. Kechasi osmonga oy chiqmasa, yulduzlar ham chiqmaydi, yulduzlar chiqmasa oy ham chiqmaydi va biz tunning chiroyidan zavq ololmaymiz.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Toxirov. Adabiy tahrir. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan oliy ta'lif muassasalari jurnalistika fakultetlari uchun darslik. "Tafakkur-Bo'stoni". Toshkent – 2012
2. Z.Toxirov. Nashr jarayoni asosiy bosqichlari. "Tafakkur- Bo'ston". Toshkent – 2015.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MUSTAQIL MATN YARATISH
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH – TIL TA'LIMINING BOSH
VAZIFASI

Begimqulova Manzura Kadirovna

O'zbekiston Respublikasi, Surxondaryo viloyati,

Termiz shahridagi 21-umumiy o'rta ta'lif muktabining o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o'tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo'llanma berish davrida amalga oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ona tili, o'quvchi, DTS, matn, pedagogik, texnologiya, talablar.

"Ta'lif to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga ko'ra "Boshlang'ich ta'lif umumiy o'rta ta'lif olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan ta'lmdir"

Shuning uchun ham "bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar bekitib qo'yilishini oddiy oddiy mantiqning o'zi talab etadi".

Darhaqiqat, shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilari bizga erkin fikrlay oladigan ijodiy fikr mahsulini nutq shakliga mos ravishda og'zaki va yozma bayon qila olish ko'nikma va malakalarini egallagan barkamol avlodning boshlang'ich avlodini yetkazib berishilari kerak.

Buning uchun esa DTS talablariga mos erkin matn yarata oladigan o'quvchilar tarbiyalash lozim. Jumladan, boshlang'ich sinflarning 3-sinflari uchun nashr qilingan "Ona tili", "O'qish" darsliklarida bu masalaga asosan matn ustida ishslash haqida ma'lumotlar berilgan. Boshlang'ich sinflar uchun tayyorlangan 2-4-sinf "Ona tili" dasturida dastlab, kichik matnlar yaratish, matn yaratish usullari haqida ma'lumotlar beriladi. Uning uchun reja tuzliladi va matn o'rganilishidan bir hafta oldin o'quvchilarga e'lon qilinadi. Yoki 4-sinfda Q.Muhammadiyining she'ri o'rganilayotganda she'rning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish e'tilib, ular haqida qisqa hikoya qilib beriladi.

Matnni ifodali o'qishda, masalan, 3-sinfda o'rganiladigan Jumaniyoz Jabborovning "Istiqlol" she'rini magnitafon orqali o'qib eshittiriladi.

Demak, boshlang'ich sinda matn ustida ishslash usullari xilma-xil bo'lib, biz ularni o'z faoliyatimizda takomillashtirib boramiz. Boshlang'ich sinfda she'riy asar



ustida ishslash ham o‘z metodikasiga ega. Bunda birinchi bosqich she’riy asarni o‘qishga tayyorgarlik, ikkinchi bosqich esa asar mazmunini tahlil qilishdir. Bunda quyidagi bosqichlar amalga oshirilishi mumkin:

1. **Tanlab o‘qish.** Bu topshiriq orqali o‘quvchi berilgan vazifaga xos parchani o‘qiydi. Masalan, 4-sinfda “Tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismini topib o‘qing” degan topshiriq berilsa, ular “Oltin kuz” qismini ifodali o‘qiydilar va hokazo.

2. **Matnni tasvirlash.** Unda birinchidan so‘z bilan ikkinchidan grafik tasvirlash amalga oshiriladi. So‘z bilan tasvirlashda o‘quvchilar o‘z so‘zлari bilan qayta hikoya qiladilar. Bunda tabiat hodisalari, manzaralar, kishilarning ko‘rinishi, hulq atvorlari qayta badiiy tasvirlab beriladi. Demak, bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari og‘zaki nutqining o‘sishiga yordam beradi. Grafik tasvirlash esa ko‘pincha uyda bajariladi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o‘qib chiqadilar. Mazmunni o‘lashtirib bo‘lgach, unga mos rasm chizadilar va hokazo.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matn tuzishga o‘rgatish turli usullar yordamida amalga oshiriladigan o‘qituvchining ijodiy faoliyati hisoblanadi. Lekin hozirgacha bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Har bir sinf yakunida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim predmetlari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘z aksini topdi.

Jumladan, I-IV sinf “ona tili” va “O‘qish” bo‘yicha quyidagi talablar belgilab qo‘yildi.

1. O‘qish texnikasi bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatkich bir daqiqada 80-90 so‘zni o‘qiy olishi kerak.

Bunda talablar:

- harflarni to‘g‘ri talaffuz etish;
- so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish;
- gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o‘qish;
- gapda tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;
- sanash va ajratishlardan to‘g‘ri foydalanish;
- so‘z urg‘usiga rioya qilish;
- ohangga rioya qilish;
- ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

2. Matn mazmunini va o‘zgalar fikrini anglash malakasi bo‘yicha:



Miqdoriy ko'rsatkich: 10 daqiqada, 4-5 sahifali matn o'qib qayta so'zlab bera olish;

Talablar:

- og'zaki, nutqning to'g'ri ravon aniq tushunarli va tasirchan bo'lishi;
- monologik nutqning ravon bo'lishi;
- diologik nutqda ta'sirchan izchil, mantiqiy jihatdan aniq bo'lishi.

2. Diktant yozish malakasi:

Miqdoriy ko'rsatkich: 40-50 so'zdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

- imlo xatolariga yo'l qo'ymaslik.
- ijodiy matnnning mantiqiy jihatdan izchilligi
- berilgan izohlarning aniqligi
- lug'atlarning to'g'ri va aniq bo'lishi

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo'yicha

Miqdoriy ko'rsatkich: 5-6 gapdan iborat bo'lgan matnni fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida yaratish.

Talablar:

- Mavzudagi gaplarningh mazmunini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi;
- Harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish
- Husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish
- So'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash
- Tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;
- Matnda so'zlarni takrorlashdan takrorlanishdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish
- Matnda xat boshilarining yaqinligi va fikr izchilligini ta'minlash
- Uyadosh so'zlardan foydalana olish
- Boshlang'ich ta'limgakunida o'quvchilar kamida 20 ta kichik hajmdagi she'rni yoddan aytib bera olishi shart

Demak, DTS da ko'rsatilgan talablarni to'g'ri bajarish uchun albatta , ona tili o'qituvchilari oldiga katta talablar qo'yiladi. O'quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta'minlashda matn, uning tahlili va matn yaratish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.



Zero, matn-inson tafakkurining voqealanishi, tugal bir mazmunining kashf etilishi, yuzaga chiqishidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. N.Maxmudov. Madaniy nutq muammolari.O`zbek tili doimiy anjumani. Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakillantirish masalalari T. "Sharq" 1999 yil.
2. Abdullayeva Q., Mahmudova M., Yusupova M., Rahmonbekova. O'qish kitobi.2-sinf.
3. Boshlang`ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi (Ma`ruzalar matni) 2-qism, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh, – T.: 2002.
3. Ikromova R., G`ulomova X., Yo`ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
4. Xudayberganova M. va b. 3-sinfda ona tili darslari. – T.: O'qituvchi, 2004.
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo`ldosheva Sh. "Ona tili" 3-sinf darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. -142 b



MASOFADAN OLINGAN MA'LUMOTLAR ASOSIDA JANUBIY OROL LANDSHAFTLARI O'ZGARISHINI BAHOLASH

Axmedov Mahkamboy Umrbek o'g'li

Urganch Davlat Universiteti

Annotatsiya: Maqolada so'nggi 10 yillik davrda Janubiy Orolbo'yи landshaftlari o'zgarishi, masofadan olingan ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Ushbu tadqiqot ishi Modis su'niy yo'ldoshi ma'lumotlaridan foydalangan holda olib borilgan. Modis su'niy yo'ldoshi ma'lumotlarini yuklab olib, GIS dasturlari yordamida sinflashtirish orqali Janubiy Orolbo'yи landshaftlari o'zgarishi tahlil qilingan.

Tayanch so`zlar: Orol dengizi, Janubiy Orol, landshaft, masofadan zondlash, Modis su'niy yo'ldoshi, sinflashtirish


Kirish: Orol dengizining qurishi va uning atrofida gumanitar falokat sodir bo'layotgani sababli Orolbo'yining tabiiy bilologik fondini asrab-avaylash, Orol inqirozining atrof-muhitga, eng muhim, bu yerda istiqomad qilayotgan millionlab odamlar hayotiga halokatli ta'sirini kamaytirish bugungi kundagi muhim vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda, har bir soha vakillari uchun ma'lum bir ob'ektning geografik joylashuvi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida olish, to'plash, tahlil qilish, modellashtirish, prognozlash va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadigan omillar hisoblanadi. O'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan Geoaxborot tizimi (GAT) va Masofadan zondlash shiddat bilan rivojlanib, hozirgi kunda ko'plab sohalarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Dunyoda tabiiy resurslarni boshqarish va ulardan foydalanish sohasida GAT va masofadan zondlashdan keng foydalanilmoqda. Jumladan, landshaft ma'lumotlarini masofadan zondlash orqali qisqa vaqtda olish va GIS dasturlari yordamida kartalashtirish, bu orqali hududda olib borilishi lozim bo'lgan chora tadbirlar to'g'risida to'g'ri qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Janubiy Orol hududini landshaftlarini biz, MODIS MOD09A1 sun'iy yo'ldoshidan olingan suratni ArcGIS dasturida nur qaytarish alomatlari bo'yicha sinflashtirish orqali aniqlaymiz. Sinflashtirish tartibi quyidagichadir: Dastlab biz ekranda ARC GIS dasturini ishga tushiramiz. So'ngra ARC GIS dasturidagi Add Data tugmasini bosib, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari saqlangan jildni qo'shamiz. Qo'shganimizdan so'ng bizga 2 ta fayl ko'rindi.

Shundan biz MODIS MOD09A1 fayilini tanlaymiz va uning ichidan yaratilgan 3 ta jildni xam qo'shamiz.



Shundan so‘ng ekranda bizga kerakli bo‘lgan hududning kartasi paydo bo‘ladi va shu joyda 3 ta jildni “layers” qilamiz. Keyin “windows” oynasidan “image analysis” tugmasini bosamiz va “CTRL” tugmasini ushlab turib zarur fayillarni qo‘shamiz.



I-rasm. Sun’iy yo‘ldoshi ma’lumotlarini ArcGIS dasturiga qo‘sish jarayoni
So‘ngra “processing” tugmasini bosib kerakli hududni tanlaymiz va uni “zoom” tugmasi orqali kattalashtirib olamiz.

“Training sample manager” tugmasini bosamiz va suratning turli joylaridagi suv havzalari, qumli hudud, dalalar, uylar va hokzo hududlardan namuna olamiz va uni yaratilgan jadvalda nomlaymiz va xar birga ajralib turishi uchun aloxida rang bilan belgilaymiz va “save training samples” tugmasi orqali fayllarni kompyuter xotirasining kerakli joyiga saqlab olamiz.

“Classification” tugmasini bosamiz va kutamiz “maximum likelihood classification” tugmasi bosgan xolda yuklab olgan fayilni tanlaymiz, bu buyruq orqali biz kompyuterga tanigan hududlarni ko‘rsatdik va shunga o‘xshash hududlarni biz ko‘rsatgan sindifatida tanishini va hududlarni monitoring qilishini belgilab berdik, bu orqali hududlarni deshirovka ham qilish mumkin. Natijani taxlil qilamiz!

“View” tugmasi orqali tanlangan hududlarga e’tibor qaratamiz. Natijada ekranimizda dalalar, suv havzalari, qumli hududlar biz o‘zimiz belgilab olgan rangda kartaning turli joylarida nomoyon bo‘ladi. Bunda biz ularning umumiyligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz. Sinflashtirish nazariyasi orqali biz istagan hududni sinflarga ajratgan xolda, mukammal tarzda, shu hududda bo‘layotgan voqealari-hodisalarini o‘rganishimiz mumkin. Shularga mos xolda chora-tadbirlarni qo‘llashimiz, shu hududning aniq karta sxemasini tuzushimiz mumkin.

Sinflashtiranimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.



Bular: 1) Qumli zona. Bu hudud Orol dengizining qurigan qismlarini o‘z ichiga oladi. Hozirda bu joylar butunlay qumlikka aylangan. Kartada ushbu qumli hudud ochiq sariq rangda ifodalangan.

2) Tuz qatlami. Bu hudud, tuzli zona Orol dengizining hozirda mavjud suvli qismigacha tutashgan tuz chiqib qolgan qismlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu hudud Orol dengizi chekingani sari kengayib bormoqda. Bu hudud kartada pushti rangda ifodalangan hududlar.

3) Orol dengizining qolgan suvli qismi va Janubiy Orolbo‘yidagi gidrografik obektlar. Ushbu hudud asosan moviy rangdagi hududlarni o‘z ichiga oladi.

4) Qamishlar. Bu hududlar asosan ko‘l bo‘ylarida joylashgan. Kartada to‘q sariq rangda ifodalangan.

5) O‘simliklar va ekin dalalari. Janubiy Orolbo‘yi hududidagi o‘simliklar va ekin dalalari. Bu hududlar kartada och yashil rang bilan ifodalangan.

6) Cho‘llashayotgan hudud. Bu hudud kartada och zarg‘aldoq rang bilan ifidalangan hudular hisoblanadi.

7) Shudgorlanmagan bo‘sh yerlar va aholi punktlari. Asosan bu hududlar qizil rangda ifodalangan.

Ushbu tadqiqot jarayonida 2012, 2015, 2019 va 2022 yillar ma’lumotlari tahlil qilindi.

Janubiy Orolbo‘yi maydoni sinflashtirish karta sxemasi bo‘yicha uning maydonlarini aniqlash uchun har bir hududdagi nuqtalar sonini sun’iy yo‘ldoshdan olingan raster fayl o‘lchamlariga ko‘paytirgan holda aniqlaymiz. Hududlarda nuqtalar soni quyidagicha ekan.


1-jadval

№	Landshaftlar	Nuqtalar soni			
		2012 yil	2015 yil	2019 yil	2022 yil
1	Qumli zona	1 190,00	53 394,00	39 040,00	46 045,00
2	Tuz qatlami	67 024,00	70 638,00	78 766,00	52 280,00
3	Gidrografiya	37 838,00	21 816,00	12 784,00	10 842,00
4	Qamishlar	-	21 030,00	30 600,00	21 177,00




5	O'simliklar va ekin dalalari	8	15	10	42
6	Cho'llashayotgan hudud	29	27	33	27
7	Shudgorlanmagan bo'sh yerlar va aholi punktlari	9	3	8	12
		678,00	282,00	203,00	223,00
		239,00	133,00	735,00	809,00
		185,00	454,00	382,00	862,00

2012 yil



2015yil



2019 yil



2022 yil



SHARTLI BELGILAR:

O'zbekiston Respublikasi hududi chegarasi qum tuzli qatlam

gidrografiya	qum barhanlari	o'simliklar va ekin dalalari
cho'llashshayotgan hudud	shudgorlanmagan bosh yerlar va aholi punktlari	

2-rasm. Janubiy Orolning 2012-2022 yillar moboynida landshaft karta sxemalari.




Bu kartalarda asosan Janubiy Orolbo‘yi maydoni 7 ta sinfga ajratib o‘rganilgan. Bu kuzatishlardan ushbu 7 ta sinflashtirilgan huduning maydonini ham aniqlashimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

Janubiy Orol landshaftlari maydoni

№	Landshaftlar	Maydoni km ²			
		2012 yil	2015 yil	2019 yil	2022 yil
1	Qumli zona	255,44	11461,35	8380,17	9883,84
2	Tuz qatlami	14387,11	15162,88	16907,60	11222,22
3	Gidrografiya	8122,15	4682,93	2744,16	2327,30
4	Qamishlar	0	4514,21	6568,47	4545,77
5	O‘simgiliklar va ekin dalalari	1862,78	3280,37	2190,13	9063,42
6	Cho‘llashayotgan hudud	6276,33	5824,26	7241,42	5969,37
7	Shudgorlanmagan bo‘sh yerlar va aholi punktlari	1971,61	741,42	1799,24	2760,90



2-rasm. Janubiy Orolning 2012-2022 yillar moboynida landshaf maydonlari o'zgarish dinamikasi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, 2019 yilga qadar qumli zona, tuzli qatlam, cho'llashayotgan hududlar yildan yilga ko'payib kelganini, gidrografik obektlar, osimlaklar va ekin dalalarini esa kamayganini ko'rishimiz mumkin.

2022 yil natijalarida esa tuzli qatlamning o'tgan davrga nisbatan kamayganini, o'simliklar va ekin dalalarini ko'payganligi kuzatishimiz mumkin.

Bu esa bugungi kunda Orolbo'yi mintaqasida "Yashil qoplamlar" maydonlarini kengaytirish, shuningdek, o'rmon fondi yerlarida flora va faunani saqlab qolish hamda tabiatga zarar yetkazmagan holda eko va ov turizmini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan chora tadbirlar natijasidir.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan Orolbo'yi mintaqasida global ekologik muammoning oldini olish va aholining ijtimoiy yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar olib borilmoqda. 2018-2021 yillarda Mo'ynoq tumanidagi o'rmon xo'jaliklari ishchi-xodimlari va aholi tomonidan 5,8 ming tonna saksovul va cho'l o'simliklarining urug'lari jamg'arildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida jami 1 million 525 ming hektar, shundan 1 million 456 ming hektar maydonda urug'dan va 69 ming hektar maydonda cho'l o'simliklarining ko'chatidan "yashil qoplamlar" – himoya o'rmonzorlari barpo etildi.

2026 yilgacha Orolbo'yi hududlaridagi 1 mln hektar yerga cho'l o'simliklari ekilishi rejalahtirilgan. Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida 2022–2026 yillarda ushbu hududlarda himoya o'rmonzorlari barpo etiladi. Bu haqda tegishli hukumat qarori qabul qilindi.

Yuqoridagi natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, Orolbo'yi mintaqasida olib borilyotgan islohotlar to'g'ri yo'lga qo'yilganligini, ular o'z samarasini berayotganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu kabi sa'y-harakatlar qurib bitgan dengizga qayta "jon" bag'ishlamoqda: Orol "ikkinchi hayotini" yashay boshladи, faqat bu safar dengiz emas, o'rmonzor bo'lib.

Xulosa: Orol dengizining qurigan qismlari landshaftlari o'zgarishini o'rganish biz uchun Orol muammosini oqibatlarini yumshatish uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Bu orqali biz, hozirgi kunda olib borilayotgan Orol dengizni qutqarish borasidagi ishlar to'g'ri bajarilayotganligi yoki aksincha ekanligini aniq bilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Buni esa masofadan kuztish orqali amalga oshirsak Orol dengizining barcha qismlarini qisqa vaqt ichida kuzatish va baholash imkoniyatini yaratamiz.



Orol dengizining qurigan qismlari landshaftlari geografik jihatdan o‘rganish bugungi kunda boshqa global muammolarni(chollashish) o‘rganishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltayev.T.X, Raxmonov.Q, Akbarov.O.M “Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari” O’quv qo’llanma TOSHKENT – 2015
2. Kovalyov.N.V, Shukina.O.G, Muxitdinov.Dj.K, Xamidova.M.B, “Fotogrammetriya va yerni masofadan tadqiq qilish” TOSHKENT 2014 у
3. Попов В.А. Проблема Арала и ландшафты дельты Амударыи. – Т.: Фан Уз CCP, 1990
4. Shokirov. Sh , Musaev.I. M, “Masofadan zondlash” Toshkent – 2015
5. В.А.Духовного, П.Навратила, И.Рузиева, Г.Стулиной, Е.Рошенко “Комплексные дистанционные и наземные исследования осущененного дна Аральского моря” Научно-информационный центр МКВК, Ташкент 2008
6. F.Lov, P.Navratil, K.Kotte, H.F.Scholer va O.Bubenzerlar “Orol dengizi qurigan tubida potensial vosita chang va tuz bo‘ronlarining xavf darajasini baxolash uchun landshaft o‘zgarishini masofadan zondlash asosida tahlil qilish” maqolasi (2013),
7. T.Panagopoulos “Orol dengizi landshaftlari o‘zgarishini kuzatish” maqolasi (2008),
8. R.Ibragimova “Orol va Orolbo‘yini tabiiy geografik rayonlashtirish tarixi” maqolasi (2018)



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING IJODIY
FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUHIM ROLI VA
O'QUVCHILAR TAFAKKURINI KENGAYTIRISHDAGI AHAMIYATI**

Qurbanova Mavluda Soatovna

O'zbekiston Respublikasi, Surxondaryo viloyati,

Termiz shahridagi 21-umumiy o'rta ta'lif maktabining o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'qitish davomida ularning ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish haqida so'z boradi. Inson tafakkurini rivojlantirishdek muhim va mas`uliyatli vazifa, avvalo ona tili mashg`ulotlari orqali bajarilishi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar:

Ona tili, fikrlash, ijodiy, tafakkur, boshlang'ich, o'quvchi, shaxs

O'zbekiston Respublikasida 2023 yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" deya nomlanishi ta'lif oldiga bir qator asosiy vazifalarni belgilab berdi. Avvalo, maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish, ularni erkin fikrlashga o'rgatish va bu orqali Yangi O'zbekistonning bilimli avlodini tarbiyalash bosh maqsadga aylangan. Aytish kerak, ona tili darslarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdagi roli juda muhim. Ijtimoiy fanlarda «ijodiy fikr» tushunchasi fikrning o'z sub`ekti bilan bo'lgan munosabatini anglatadi. Fikr bir tomonidan umumiylig xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan sub`ektivdir. U shaxsning ijtimoiy-ruhiy holati bilan bevosita bog`langan. Ushbu fikriy jarayonda shaxsning boshqaruvchilik faolligi muhim o'rin egallaydi. O'quvchi yoshlardagi ijodiy fikr, bir tomonidan psixologik holat bilan bog`langan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning yoshi, mamlakatda qabul qilingan ta'lif-tarbiya usuli, qoidalari va tamoyillari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi.

Ijodiy fikr o'quvchining biror predmet, voqeа, hodisa jarayon to'g'risida o'zganining yordamisiz yoki rahbarligisiz bildirgan munosabati, bahosi, nuqtai nazaridir, o'zining «men»ini namoyish qilish vositasi, «quroolidir». Ijodiy fikrlash o'quvchining muayyan predmet va jarayonlar to'g'risidagi bilimi, malakasi asosida ularni taqqoslash, tahlil qilish, sodda fikrlardan murakkab fikrlarga, murakkab fikrlargadan sodda fikrlarga o'tish sharoitida, jamiyatda mavjud ijtimoiy-tarixiy holatni hisobga olgan holda, o'ziga xos mulohaza yuritish sanaladi. Ijodiy fikrlash aytilganidek, o'quvchining individual psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog`langan bo'lib, u o'zining hajmi, mazmuni, mantiqiylik darajasi hamda tezkorligiga ko'ra farqlanadi. Unda muayyan jihatni aniqlash, qiyoslash, tahlil qilish, ikkilanish, tassavur qilish, modellashtirish



yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu jarayonda jamiyatning o‘quvchi shaxsning ijodiy salohiyatiga bo‘lgan e`tibori muhim kasb etadi.

Ma`lumki, ong va ta`lim-tarbiya bir-biri bilan dialektik bog`liq ijtimoiy hodisalardir. Ta`lim-tarbiya tizimini, o‘zgartirmasdan, yangilamasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ayni vaqtida ong ta`lim-tarbiya yo‘nalishini, uning mohiyatini tizimini, mavjudlik darajasini belgilaydigan omil ekanligini aniq.

Tafakkurning mavjudlik mexanizmi fikr va fikrlararo munosabatlar orqali amalga oshadi. Har qanday fikrda ma`lum bir predmet yoki predmetlararo, jarayonlararo munosabatlarning haqiqatga yoki haqiqat emasligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Fikr hamisha nutq yordamida voqelikka aylanadi. Fiksiz nutq va nutqsiz fikr bo‘lmaydi. Nutq ayni vaqtida shakl vazifasini o‘taydi, uning mazmuni esa fikr tashkil qiladi. Ega va kesim o‘rtasidagi munosabat gap mazmunining tugalligini bildirsa, gapda ega uni o‘zidan oldingi fikr bilan bog`laydi, kesim esa yangi fikrning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu tarzda fikrlar bir tomonidan o‘zaro bog`lanadi, ikkinchi tomonidan esa ular muntazam rivojlanib boradi. Fikrning ana shu tarzda rivojlanib borishi o‘quvchining og`zaki nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchining ijodiy fikrlarini yozma bayon qilish malaka va ko‘nikmalarini ona tili darslarida bayon, insho, matn yaratish kabi ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchining o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, ularning til hodisalarini kuzata olish, izlanish alohidalikni sharhlash, qiyoslash, umumiylilikni aniqlash farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash, qo‘llash singarilari bilan bog`liq.

Bular ijodiy taffakur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlariga ega:

1. Kuzatish –darslik topshirig`i asosida ona tili hodisalaridan berilgan namunalarni kuzata olish;
2. Izlanish –o‘y়лаш, xotirada tiklash, so‘rash, lug’at, qomus, ma`lumot manbalardan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyita olish;
3. Alohalikni sharxlash –berilgan va o‘zi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;
4. Qiyoslash –siradagi hodisalarini o‘zaro qiyoslay olish;
5. Umumiylilikni aniqlash –siradagi hodisalarning o‘xshash, umumiylarini aniqlay olish;
6. Farqlarni topish –siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlay olish;



7. Tasnif etish –siradagi hodisalarni o‘xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajrata olish;
8. Hukm chiqarish –hodisalar sirasi haqida umumlashma hukm, xulosa chiqara olish;
9. Alohidaliklarni aniqlash–o‘rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma`nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari v.h) aniqlay olish;
10. Qo‘llash –hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og`zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuza olish. Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko‘rinishi matn yaratishdir. Shu sababli ona tili darslarida matn ustida ishlash etakchi yo‘nalish kashf etish lozim.

Maktab “Ona tili” dasturi va darslarida “Ijodiy matn ustida ishlash” bo‘limining kiritilishi ham xuddi shu maqsadni ko‘zlaydi. O‘quvchi va talabalarni ona tili darslarda mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ular ongida ma`naviy–ma`rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatic qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg`ulotlarni o‘quvchi va talabalarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Ona tili ta’limi ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashga xizmat qilar ekan, o‘quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan ijodiy-amaliy ishlarga qo‘yiladigan talablarni hisobga olish, ularni uzluksiz amalga oshirish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ona tilidan ta’limning maqsad va vazifalari avvalo tilning jamiyatda bajaradigan vazifasi, inson hayotida tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Til jamiyat a`zolari o‘rtasida aloqa-aratashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og`zaki va yozma ravishda berishi, o‘z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Maktabda ona tili ta’limiga qo‘yilgan muhim talablardan biri o‘quvchilarni o‘z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Ma`lumki kilishilar o‘z faoliyatining barcha sohalarida bir–birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan moddiy vogelikdagi narsabuyumlar va voqeal-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini birbirlariga ma`lum qiladilar.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo‘lmasa, jamiyatning halok bo‘lishi muqarrardir. Fikr esa faqat til yordamida ro‘yobga chiqadi.. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uning o‘zini to‘lato‘kis o‘rganib olishga harakat qilishi zarur. Maktabda ona



tili o‘qitishni foydali maqsadlariga bo‘ysindirish, har bir o‘rganiladigan grammatik tushincha, ma`lumot, ta`rif va qoidalarning og`zaki va yozma nutqini rivojlantirishga yordamini nazarda tutishni, amaliy tilshunoslikka e`tiborni kuchaytirishni taqoza etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. N.Maxmudov. Madaniy nutq muammolari.O`zbek tili doimiy anjumani. Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakillantirish masalalari T. “Sharq” 1999 yil.
2. Abdullayeva Q., Mahmudova M., Yusupova M., Rahmonbekova. O‘qish kitobi. 2-sinf.
3. Boshlang`ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi (Ma’ruzalar matni) 2-qism, G`ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., – T.: 2002.
3. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
4. Xudayberganova M. va b. 3-sinfda ona tili darslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. "Ona tili" 3-sinf darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. -142 b



**HAMKORLIK SIFATLI TA'LIM TIZIMINING ASOSIY TAMOYILI
SIFATIDA**
Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna
FarDU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari va yondashuvlari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, kommunikativ layoqat, shaxsiy-insonparvarlik yondashuv, ta'lif strategiyasi.

Hamkorlik pedagogikasi doimo izlanishni, kreativlikni va yangi-yangi g'oyalarni birga yuzaga chiqarishni talab qiladigan keng qamrovli fan hisoblanadi. Shuning uchun ham hamkorlik pedagogika fani yil sayin rivojlanib bormoqda. Buning negizida hech shubhasiz hamkorlik tamoyili yotadi. Hamkorlik sifatli ta'lif tizimining asosiy tamoyillaridan biridir. Ijtimoiylasuvdagi hamkorlik orqali esa ko'proq samarali dasturlar yaratiladi. Pedagogik hamkorlik, bu faqat o'qituvchilar orasidagi hamkorlik emas, balki o'qituvchi va talabalar orasidagi hamkorlikdir. O'qituvchilarning talabalar bilan o'zaro hamkorligi talabalardagi o'zlariga bo'lgan ishonchni yanada ortishiga olib keladi va bu dars samaradorligini oshirib, ularga sifatli ta'lif olishlarida katta yordam beradi. Ahamiyatli narsa shuki, pedagogik hamkorlik, bu o'qituvchilarni o'zlarining doimiy ta'lif usullaridan voz kechishlari emas, aksincha, dars samaradorligini oshirish hamda sifatli ta'lif muhitini yaratishda talaba bilan o'zaro birqalidagi faoliyatni ya'ni hamkorlikni yuzaga keltirishdir.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan yana biri shaxsiy-insonparvarlik yondashuvidir. Shaxsiy-insonparvarlik yondashuv shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lif tizimi markazida turadi. Mazkur yondashuv ta'lif oluvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, qobiliyatları, imkoniyatlari, erkinlik vaadolatlilik, yaxshilik va baxtning axloqiy kuch-qudratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ta'lif muassasasining maqsadi – shaxsning ichki kuchlari va imkoniyatlarini uyg'otish, ularning to'liq va erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lif oluvchiga shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi N.N.Azizzo'jayeva, R.Safarova, N.M.Egamberdiyeva, B.X.Xodjayev, G.K.Selevko, I.S.Yakimanskiy bir qator tadqiqotlarda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning kommunikativ asosi sifatida o'rganilgan. Mazkur yondashuvning mohiyati quyidagi g'oyalarning yig'indisi tarzida yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflarning konsepsiyanarida aks etgan. Aynan bugungi kunga kelib ta'lifning asosiy maqsadi o'quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi



asnosalda ta'limga va shaxsga nisbatan yangicha va innovatsion qarash: shaxsiy pedagogik faoliyatning obyekti emas, aksincha subyekti sifatida aks etadi; shaxs esa – bunda qandaydir ichki va tashqi maqsadlarga erishish vositalari emas, balki ta'lim tizimi maqsadi; har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli, ko'plab ta'lim oluvchilar iqtidorli; shaxsning muhim sifatlari sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish: pedagogik muhabbat, ta'lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; ta'lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash; hamkorlik, muloqot mahorati; to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish; ijobjiy rag'batlanirishning muhimligi; ta'lim oluvchi shaxsiga ta'lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat; o'qituvchi va ta'lim oluvchi huquqlarini tenglashtirish; ta'lim oluvchining erkin tanlashga bo'lgan huquqi tushuniladi. Zamonaviy sharoitda to'g'ridan-to'g'ri natija bermaydigan "majburlab o'qitish" metodidan voz kechish balki majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlikni yo'lga qo'yish; o'qitishga tug'ma qiziqishlarni ko'payganligi; majburlashning o'rnini muvafaqqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish; ta'lim oluvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo'yib berilishi; ta'lim oluvchilarga ularning subyektligi, o'z-o'zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, hayotiy o'z o'rnini belgilashiga yordam ko'rsatish, pedagogik qo'llab-quvvatlash. Bugungi kunda individual yondashuvni yangicha talqin etishda quyidagi xulosaga kelindi: "barcha o'quv fanlardan ta'lim oluvchiga qarab borish emas, aksincha ta'lim oluvchidan boshlab sekin asta o'quv faniga borish" tamoyilining bajarilishi; bunda ta'lim oluvchilarning barcha qobiliyatları va mavjud bugungi imkoniyatlarını inobatga olgan holda o'qitish; ta'limda o'zlashtirishda o'rtachalikdan voz kechish; ta'lim oluvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini izlash; shaxsni pedagogik tashxis eta olish (qiziqish, turli qobiliyatları, jarayonga yo'nalganlik, Menlik, ijobjiy xarakter, kreativ fikrlash jarayonlarining o'ziga xosligi)ning qo'llanilishi; shaxsning o'quv-tarbiya jarayonidagi barcha o'ziga xosliklarini hisobga olish zarur. Shuningdek, talabalarda ijobjiy ma'nodagi "Menkonsepsiysi"ni shakllantirish: pedagogik muloqotning ta'lim oluvchilarda o'ziga ijobjiy munosabatni rivojlantirishning yo'nalganligi; hayotiy faoliyatning ijobjiy yo'l-yo'riq va motivlarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda olamni yaxlit tarzda turli fanlar kesimida o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, aksariyat kishilar ongida yirik muammolar va ularni yechishning muayyan darajasi mavjud emas. Ma'lumki, xalqning ijtimoiy tajribasi ta'lim jarayonida yosh avlodga taqdim etiladi. Ta'lim strategiyasini o'zgartirish uchun uchinchi ming yillik bo'sag'asida yangicha metodologiya asosida ta'lim tizimi isloh qilina boshlandi. Bu esa, fanda sohalararo



aloqadorlik, hamkorlikda faoliyatni tashkil etish paradigmasini vujudga keltirdi. Pedagogika sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalar va bolalar hamkorligining pedagogik asoslari hayotiy faoliyat jarayonida ularning birgalikda voqelikni kuzatishi, ishtirok etishi, ijod qilishi, bilimlarni o'zlashtirishi, shuningdek, har bir shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi jarayonidagi hamkorlik; bolalar va kattalarning ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga imkon beruvchi birgalikdagi ijodkorlik tarzida yuzaga chiqadi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarni tahlil etish asosida o'quv-bilish faoliyatidagi ta'limga oluvchilarining hamkorligining invariant belgilarini aniqlashtirdik. Pedagogika sohasida amalga oshirilgan turli tadqiqotlar N.I.Barakovskaya, N.V.Bordovskaya, Ye.V.Korotayeva, I.A.Larionova ta'limga oluvchilar o'rtasidagi hamkorlik asosida falsafada subyektni faol harakatlanuvchi, bilim sohibi, ong va irodaga ega inson sifatida qarash ta'limga oluvchining subyektiv nuqtai nazari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, I.A.Larionova hamkorlik – bu hamkorlik faoliyatida o'zining subyektiv nuqtai nazari, ya'ni barqaror ijobiy emotsiyal holatini, mustaqilligi, bilish faolligi, hamkorlikdagi faoliyat, o'zaro birgalikdagi harakat qilayotgan barcha ishtirokchilarining natijalariga samimiy munosabatda bo'lish ko'nikma va malakalarining rivojlanganligining yuqori darajasini namoyon etish, deb izohlaydi. N.I.Barakovskayaning qayd etishicha, sinfdoshlar orasida hamkorlikni tashkil etish jarayonida ta'limga oluvchilar o'zining shaxsiy sifatlarini o'zgartirishga tayyorgarlikni namoyon etadigan o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish obyekti va bir paytning o'zida vaziyat subyekti sifatida shakllanadi. Demak, ta'limga oluvchilarining subyektiv nuqtai nazarini faollashtirish o'quv-bilish faoliyatida ta'limga oluvchilar hamkorligining invariant belgisini o'zida aks ettiradi.

Ijtimoiylashuvda hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari va yondashuvlari quyidagicha:

Tamoyillari	Ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga doir yondashuvlar
- kasbiy kompetentlik;	- antropologik, insonparlik;
- ta'limda insonparvar yo'nalghanlik;	- tizimli-yaxlitlik;
- hamkorlik (pedagogik o'zaro birgalikdagi faoliyat);	- shaxsga yo'naltirilganlik;
- madaniy uyg'unlik;	- subyektiv faoliyatga yo'naltirilganlik;
- tabiat bilan uyg'unlik;	- polisubyektivlik;



- kreativlik;	- dialogik;
- integratsiya;	- madaniy-insonparvarlik
- pedagogik evristika;	- kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish
- uzviylik;	- innovatsion
- uzlucksizlik	- pragmatik

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiylasuvdagi hamkorlik ta'lism-tarbiya sifatini takomillashtirish mazmuni sinergetik yondashuvga asoslangan o'qituvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash va kooperativ ta'limgi tashkil etish yo'llarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hamkorlik pedagogikasi nazariyasiga oid ta'limgi mazkur bo'g'inlarida foydalanishga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarini yaratish, yoshlarga olamni yaxlit tarzda tushunish va anglash uchun imkoniyat yaratish, ta'limgi tizimining muayyan qismlarida hamkorlik tamoyilini joriy qilish, pedagogik hamkorlik metodidan ham foydalanish, ta'limgi oluvchilar hamda o'qituvchilar orasida ishchan dialog muhitini vujudga keltirish, hamkorlik ta'limgi jarayonining shaxs shakllanishiga yo'naltirilganligi, ongli tarzda o'z metodikasi va ish uslubini yaratishga o'rgatish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
2. Abdullaeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.
3. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat– Toshkent: TDPU, 2003. – B. 234.
4. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – СПб.: Питер, 2001. – с. 276
5. Бараковская Н.И. Воспитание отношений сотрудничества между школьниками 5-7 классов на основе гуманистических ценностей методами педагогического консультирования – Екатеринбург, 1998. – 37-б.
6. Коротаева Е.В. Педагогическое взаимодействие: становление дефиниции // Педагогическое образование в России. – 2007. – №1. – С. 73-83
7. Ларионова И.А. Ситуация успеха в учебной деятельности как фактор развития отношений сотрудничества в системе учитель-ученик: дис. ... кан. пед. наук. – Екатеринбург, 1996. – 127 с.





8. Ларионова И.А. Ситуация успеха в учебной деятельности как фактор развития отношений сотрудничества в системе учитель-ученик: дис. ... кан. пед. наук. – Екатеринбург, 1996. – 7-8-б.
9. Дьяченко, В.К. Сотрудничество в обучении: о коллективном способе обучения. – М.: Просвещение, 1991. – 192 с.
10. Жокина Н.А. Педагогические основы сотрудничества взрослых и подростков в детских общественных самодеятельных объединения: дис. ... кан. пед. наук. – Киров, 1996. – 168 с.





TALABANING O'QUV GURUHIGA MOSLASHUVIDA PEDAGOGIK
HAMROHLIK QILISH JARAYONINI TASHKIL ETISH USULLARI

Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna

FarDU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarning o'quv guruhiga moslashuvida pedagogik hamrohlik qilish usullari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Hamkorlik pedagogikasi, pedagogik hamrohlik, propedevtik – tashxisiy, konstruktiv aloqa, strategik monitoring, taktik va tezkor monitoring, kostruktivlik, kommunikativ ko'nikma.

Ta'lim-tarbiya jarayonining ta'lim oluvchi yoshlarida bugungi kunga kelib, ijtimoiy faollikni oshirishda ta'lim beruvchi o'qituvchi va qabul qiladigan ta'lim oluvchilar munosabatlarini to'laligicha demokratlashtirish, erkinlashtirish o'qituvchining o'zidagi mavqeiga qarashni, ta'limning ichki shakli uning mazmuni hamda texnologiyalariga yangicha, innovatsion yondashuvlarning ketma-ketligini joriy qilishni, umuman olganda, ta'lim tizimi va davlat organlari hamkorligi asosida institutsional tizimni yaratishni taqozo etadi. Bunday belgilangan yangicha yondashuv, bugungi kun o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi izchil munosabatni tubdan o'zgartirishni to'laqonli talab etadi.

Oliy o'quv yurti va ijtimoiy-madaniy muhitning ta'lim resurslarini integratsiyalash hamrohlik qiluvchi faoliyatining bosh yo'nalishi hisoblanadi va u keng ko'lamli ijtimoiy-psixologik-pedagogik ish usullari va shakllaridan kompleks ravishda foydalanishga imkon beradi.

Talabaning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish jarayoni bir necha bosqichlarni qamrab oladi:

1-bosqich – propedevtik - tashxisiy. U pedagogik hamrohlikning barcha ishtirokchilari: hamrohlik qiluvchilarning ham, hamrohlik qilinayotganlarning ham moslashuv jarayoniga tayyorlanishi va kirishni anglatadi. Ushbu bosqichning davomiyligi 6-8 hafta. Ushbu bosqichda bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: birinchi kurs o'quv guruhlari o'qituvchilari va tyutorlarini tayyorlash, guruhlar tyutorlari tomonidan bir yillik moslashuv dasturining ishlab chiqilishi, tyutorning talabalarning shaxsiy ishlari bilan tanishishi, o'quv guruhida talabalar bilan tanishishni tashkil etish, har bir guruh ishtirokchisining moslashuv salohiyatini aniqlash, talabalarning ushbu o'quv guruhida muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradigan omillarni aniqlash.



2-bosqich - konstruktiv o‘zaro aloqa. U talabalarning o‘qituvchilar va (tyutorlar sifatida ishtirok etuvchi) yuqori kurs talabalari rahbarligida guruh ichidagi munosabatlar tizimida o‘zini o‘zi amalga oshirishning turli xil variantlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy sinamalar maydonidir. Bosqich 6 oy davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: tyutor tomonidan guruhda konstruktiv o‘zaro aloqa usullarining mashq qilinishining tashkil etilishi, guruhda jamoani hosil qilish ustida muntazam ishslash, shaxsning turli guruhdagi shaxsiy xususiyatlari hamda uning kommunikativ salohiyatining namoyon bo‘lishini talab qiladigan o‘zaro aloqa vaziyatlarini yaratish, guruh ichidagi o‘zaro aloqa natijalarini tahlil qilish, keyin algoritm takrorlanishi mumkin: ko‘nikma va qobiliyatlarning yangi guruhlarining mashq qilinishini tashkil etish, xusan, talaba ushbu ko‘nikmalarini namoyon etishi, o‘z faoliyatini va guruhdagi muloqotini tahlil qilishi va qayta anglashi mumkin bo‘lgan real vaziyatlarni yaratish.

3-bosqich – tahliliy faoliyat. Bunda talabaning guruhda moslashuvi natijalarini sarhisob qilish, mustaqil va ekspert baholash, ushbu yutuqlarni o‘quv faoliyati natijalari bilan bog‘lash, auditoriyadan tashqari faoliyatga qo‘shilganligi, qiyinchiliklarni aniqlash, talaba va ushbu o‘quv guruhi a’zosining keyingi rivojlanishining individual trayektoriyalarini ishlab chiqishni ko‘zda tutiladi. Bosqich 4-6 hafta davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi - o‘z-o‘zini tahlil qilish, mikroguruhlarda tahlil qilish, umumguruhiy tahlil qilish va refleksiyalash (qayta anglash), tyutor bilan individual refleksiyaviy uchrashuvlar tashkil etish.

Talabalarning o‘quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilishning maqsadiga erishish uchun asosiy an’anaviy axborot berishning shakllari (ijtimoiy-psixologik, pedagogik yordam, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish), usullari (tarbiyalovchi vaziyatlar, dolzarblashtirish, mustahkamlash va boyitish, ko‘maklashish va ijodni loyihalash) hamda keng ko‘lamidan (individual va guruhli suhbatlar, munozaralar, jamoaviy-ijodiy ishlar, vaziyatli o‘yinlar va boshqalar) foydalilanilgan. Pedagogik hamrohlik modelini amalga oshirish doirasida 3-jadvalda keltirilgan interfaol adaptiv o‘qitish usullaridan foydalananish taklif etiladi [85]. Moslashuv jarayonini amalga oshirish samarali bo‘lishi uchun o‘quv jarayonida murakkablashishiga qarab faol va interfaol mashg‘ulot shakllaridan foydalilaniladi:boshlang‘ich daraja - me’yoriy-mantiqiy va kommunikativ; innovatsion loyihalar; hayotiy vaziyatlarni modellashtiruvchi usullarni qo‘llash va amalga oshirish. O‘yinli usullar, murakkablikning nomlanishi, rolli o‘yin, ishbilarmonlik o‘yini, loyihaviy aloqalar texnologiyasi, talabaning o‘quv guruhidagi ijtimoiy-psixologik ahvoli, talabaning qiyinchiliklarni yengish, uning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati va



tanlangan kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun salohiyatini kengaytiradi. Bo'linmalarning strategik, taktik va tezkor monitoringi quyidagicha:

- strategik monitoring talabalarni moslashtirish uchun shart-sharoitlarni o'rghanish, hamrohlikning maqsad va vazifalarini aniqlash imkonini beradigan tashxisiy vositalar majmuini o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda strategik monitoring talabaning o'quv guruhida moslashuv jarayoniga ta'sir qiluvchi, omillarni aprior tartiblash yordamida amalga oshirildi.

- taktik monitoring talabalarning moslashganlik darajasi, ularning guruhdagi o'zaro aloqaga yo'nalganligi, asosan standartlashtirilgan test metodikalariga bo'lган ehtiyojni kuzatib borishga imkon beradigan tashxisiy vositalar majmui yordamida, shuningdek, o'zgarishlar dinamikasini miqdoriy va sifatli kuzatib borishga imkon beradigan, talabalarning o'zlashtirishini tahlil qilish orqali ta'minlangan.

Tezkor monitoring talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish bosqichlarini o'tish samaradorligini bosqichma-bosqich kuzatib borish funksiyasini bajargan. U asosan u yoki bu pedagogik ta'sirlarning muvaffaqiyati/muvaffaqiyatsizligidan darak beradigan teskari aloqaga tezda ega bo'lishga imkon beradigan ekspress-tashxislash usullarini o'z ichiga olgan. Bunda kuzatuv, talabalar faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, qisqa intervylar, refleksiv suhbatlar natijalari, ekspress-so'rovlar, mustaqil kuzatuv kundaliklaridan foydalanish mumkin.

Talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish samaradorligi mezonlari etib quyidagi qoidalar belgilangan:

- talabalarning ta'lim jarayoni hamda auditoriyadan tashqari faoliyatdagি o'quv va shaxsiy yutuqlari;

- tanlangan kasb bo'yicha oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonidan qoniqish; guruhning shaxsiy idrokidagi "biz" ta'rifida ifodalangan, o'z o'quv guruhiiga nisbatan ijobiy munosabat;

- hamrohlik jarayoniga uslubiy ta'minlash;
- talabalar tomonidan hamrohlikka bo'lgan talab.

Moslashuv jarayoniga muvaffaqiyatli hamrohlik qilish natijasi quyidagicha:

- talaba yangi muhitda o'zini tutish talablari, me'yorlari va qoidalarini o'zlashtiradi;

- yangi ijtimoiy qurshov bilan muloqot qilishda psixologik qoniqishni boshdan kechiradi;

- talabalarning boshqa talabalar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlari yo'lga qo'yiladi;



- shaxs oliv o‘quv yurtidagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga yo‘naltiriladi.

Shu tariqa, talabalarning o‘quv guruhiga moslashuvida pedagogik hamrohlik qilish modeli o‘rganilayotgan jarayonning mohiyati va mazmunini yorqin namoyish etadi. Uning asosiy vazifasi talabaning tashqi tomondan moslashganligini ekspert baholash emas, balki talabani oldida turgan moslashuv vazifalari, guruhdoshlari bilan konstruktiv aloqalarni o‘rnatish va saqlashda yuzaga keladigan muammolarni tushunishga rag‘batlantirish hisoblanadi. Binobarin, hamrohlik - birinchidan, umumiy va yaxlit, qolaversa, har tomonlama faoliyat jarayoniga ko‘maklashish va yordam berishning umumiy tizimi; ikkinchidan, integrativ - innovatsion texnologiya, uning tub asosi takomillashishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyatini dolzarblashtirish, qolaversa, buni ochib berish uchun kerakli shart-sharoit yaratish va natijada alohida shaxsnинг o‘zining asosiy funksiyalarini bajarishi; uchinchidan, hamrohlik qiluvchilar va yordamga muhtoj bo‘lganlar o‘rtasidagi alohida munosabatlar jarayonidir.

Birinchi kurs talabalarining o‘quv guruhida o‘zaro aloqalarini tashkil etishda trening ish shakllarini o‘tkazish, guruhiy muhokama, refleksiv va tahliliy suhbatlar, tashxis o‘tkazish, uning natijalarini tahlil qilish, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi:

- birinchi kurs talabalarining umumiy madaniyati, hissiy barqarorligi, ichki olamining rivojlanishi, pedagogik faoliyatga ijobiy yo‘nalganligi va o‘ziga ishonchi, boshqa fikr va nuqtai nazarlarni qabul qilishda ochiqligini o‘z ichiga olgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirish;

- pedagogik jarayonning maqsad va vazifalarini belgilay olish, shu jumladan, talabalarning o‘ziga xos xususiyatlariga moslab shaxsga yo‘nalgan pedagogik maqsad va vazifalarni belgilay olish;

- birinchi kurs talabalarining o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish - ularda o‘quv jarayoniga qiziqishni uyg‘ota olish, o‘quv vazifasini shaxsiy ahamiyatga ega vazifaga aylantira olish va birinchi kurs talabalarining o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini pedagogik jihatdan baholay olish;

- mavzu sohasidagi axborot kompetentlikni internetning interfaol imkoniyatlari, shu jumladan, talabalar guruhi bilan virtual o‘zaro aloqalarni tashkil etish uchun innovatsion axborot texnologiyalari yordamida rivojlantirish;

- shaxsiy pedagogik faoliyat dasturini ishlab chiqo olish va pedagogik qarorlarni qabul qila olish, shu jumladan, nostandart sharoitlarda harakat qila olish, faoliyatda ta’lim, tadqiqot va auditoriyadan tashqari faoliyat imkoniyatlarini integratsiyalash;



- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarni o'rnatishda kompetentlik, faoliyatda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish.

Ushbu jarayonga dasturiy-maqsadli yondashuvning tashkil etuvchisi hisoblanadigan, talabalarni o'quv guruhiga moslashtirishning maqsadli dasturining texnologik xaritasini taklif etiladi. Mazkur maqsadli dasturning texnologik xaritasi tyutorga jarayonni kompleks va tizimli ravishda qurishga imkon beradi.

Maqsadli blokning vazifalari:

- talabaning ta'sir obyekti pozitsiyasidan guruh ichidagi munosabatlar subyekti pozitsiyasiga o'tishda pedagogik yondashuv jihatidan boshqarishni amalga oshirish;
- birinchi kurs talabalarini tavsiya etilgan guruhiy faoliyat turlariga kiritish;
- kursdoshlar bilan sheriklik, o'zaro munosabatlarga ko'maklashish va hamrohlik qilish.

Кураши чоралари. Тупроққа элементлар баланси сақланған үғитларни киритиш; әкинга тупроқда етишмаслиги кузатилған микроэлементлар еритмаларини пуркаш; тупроқда pH ни нормага келтириш лозим.

Бодринг касаллукларига қарши курашда Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигига ишлатиш учун рухсат этилган фунгицидлар

Препарат номи	Сарф меъёр и, га/кг ёки га/л	Экин тури	Қайси касаллукка қарши ишлатилади	Ишлатиш муддати усули ва тавсия этилган чекловлар	Ҳосилни ииғишига қанча қолганда ишлов тугулланади, кун	Бир мавсум да кўпи билан неча марта ишлати-лади
КВАДРИС 25% сус.к. (250 г/л)	0,6	Иссикҳо надаги бодринг	Пероноспороз ун-шудринг	Препарат фақат ўзга фунгицидлар билан қўшиб ишлатилади. Ўсимлик ўсув даврида пуркалади.	30	2
ФУНДАЗОЛ 50% н.кук. (500г/кг)	0,8-1,0	Очиқ ва иссиқҳо надаги бодринг	Ун-шудринг антракноз	Ўсимлик ўсув даврида пуркалади.	7	2
ОҲАК-ОЛТИНГУ-ГУРТ ҚАЙНАТМАСИ	Боме даражаси ўлчови да 0,5-1,0	Бодринг	Антракноз ун-шудринг	Ўсимлик ўсув даврида	1	1



БОРДО СУЮКЛИГИ	Мис купоро си бўйича 6,0-10,0	Очиқ ва иссиқҳо надаги помидор	Антракноз Пероноспороз Аскохитоз Бактериоз доғланиш	Ўсимлик ўсув даврида мис купороси бўйича 1% ли эритма ҳолида пуркалади	5	3
ЛОТОС 10 % эм.к. (100 г/л)	0,75	Иссиқҳо надаги бодринг	Ун шудринг	Ўсимлик ўсув даврида	7	3
ТОПАЗ 10% эм.к.	0,1250,15	Бодринг	Ун-шудринг	Ўсимлик ўсув даврида	20	2
ТОПСИН-М, 70% н.кук. (700 г/кг) (Б)	1,0	Бодринг	Ун-шудринг кулранг чириш	Ўсимлик ўсув даврида	7	3

ФОЙДАНАЛИГАН АДАБИЁТЛАР

1. Б. А. Ҳасанов, Р.О. Очилов, Р.А. Гулмуродов. Сабзавот, картошка ҳамда полиз экинларининг касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент 2009
2. Шералиев А.Ш., Рахимов У.Х. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФИТОПАТОЛОГИЯСИ. ТОШКЕНТ 2014.
3. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигига ишлатиш учун рухсат этилган пестицидлар ва агрехимикатлар рўйхати. Тошкент 2013.
4. Зуев В.И., Атаходжаев А.А., Қодирхўжаев О., Асатов Ш.И., Акромов У.И. Ҳимояланган жой сабзавотчилиги. Т., “Иқтисод-молия” 2014. – б. 124-238.
5. Зуев В.И., Абдуллаев А.Г. Сабзавот экинлари ва уларни етишириш технологияси. Т., «Ўзбекистон», 1997. – б. 301-310.
6. www.agroflora.ru





**Tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash
Aliyev Komronbek Nodirbekovich-TDYU, Jinoyat qonunchiligini qo'llash
nazariyasи va amaliyoti yo'nalishi magistri**

Annotatsiya. Ushbu tezishda yurtimiz va xorijiy mamlakatlarda tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari va bu borada qonunchiligidizda qanday mumammolar mavjudligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish uchun qonunchilikka qanday o'zgartirishlar kiritish kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tamom bo'Imagan jinoyat, liberallashtirish, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyatga suiqasd qilish, o'ta xavfli retsidiivist, umrbod ozodlikdan mahrum qilish, individuallashtirish, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish, jinoyatning sodir etish bosqichlari, differensiyalash.

Tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda nafaqat jazo tayinlashning umumiy asoslariga, balki Jinoyat kodeksining 58-moddasi maxsus qoidalari ham riosa qilish lozim. Maxsus qoidalarni hisobga olishning asosiy sababi, ushbu noqonuniy tajovuzlarga jazo tayinlashda alohida yondashuvning o'ziga xosligidadir. Shunday qilib, JK 58-moddasi adolat va insonparvarlik prinsiplarini o'z ichiga olib, jinoiy jazo maqsadlarini to'laqonli amalga oshirishga ko'maklashadi.

Jinoyat uchun jazo tayinlash tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasi (tamom bo'Imagan jinoyat uchun jazo tayinlash)ga kiritilgan muhim o'zgartirishlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 apreldagi 152-sonli qonuniga ko'ra, tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash qoidalari liberallashtirilib, tamom bo'lgan jinoyatlardan farqli ravishda ushbu jinoyatlar uchun jazo tayinlashning alohida qoidalari mustahkamlandi. Jumladan, ushbu qonunga ko'ra, «jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtadan uch qismidan oshmasligi kerak». O'z navbatida, ushbu qoida jinoyat sodir etgan har qanday shaxsga va jinoyatga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Ya'ni mazkur qoida: o'ta xavfli retsidiivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolariga nisbatan, tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun, shuningdek, quyidagilar bilan, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish bilan, o'n to'rt yoshga to'Imaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan; yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagи ommaviy qirg'in qurolini, bunday quroq



yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarini kontrabanda qilish bilan

bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda qo‘llanilmaydi. Tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas. Lekin agar jinoyatga suiqasd qilishdagi tajovuz orqali boshqa ijtimoiy munosabatlarga xavfli oqibatlar yetkazilgan bo‘lsa, ushbu tajovuz alohida jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinib, JK 54-moddasiga asosan jazo tayinlanishi lozim. Masalan, boshqa shaxsning hayotiga tajovuz vaqtida, shaxsga og‘ir tan jarohatlari yetkazilsa, ushbu holda sodir etilgan tugallangan jinoyat sifatida JK 104-moddasi bilan 97-modda ko‘rsatilgan jinoyatga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinib, jazo tayinlanishi lozim. U yerda jinoyatlar tarkibi bo‘yicha jazo tayinlanadi (JK 59-moddasi) va tamom bo‘lgan jinoyatlar uchun jazo JK 54-moddasining talablari asosida va jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish JK 58-moddasi 1-qismi asosida tayinlanadi.

Ushbu qonunning qabul qilinguniga qadar, sudlar tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda, ya’ni jinoyatga tayyorgarlik va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun jazo tayinlashda jinoyatning og‘ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini e’tiborga olgan holda, tamom bo‘lgan jinoyatlar sanksiya doirasida jazo tayinlash huquqiga ega edilar. Endilikda ushbu qoidaning kiritilishi munosabati bilan, eng avvalo, tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash qoidalari individuallashtirildi. Buning mohiyati, tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda alohida o‘ziga xos maxsus holatlarni e’tiborga olinishi kerakligi, bu borada tamom bo‘lmagan jinoyatlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Tamom bo‘lmagan jinoyatlar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishga bo‘linadi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tamom bo‘lmagan noqonuniy tajovuzning turlaridan biri bo‘lib, jinoiy javobgarlikni istisno etadi.

JK 25-moddasi 1-qismiga ko‘ra jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb, shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun sharoitlar yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlangunga qadar to‘xtatilishiga aytildi. Ammo qonunda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida to‘xtatilganligi uchun alohida javobgarlik belgilanmay, JK Maxsus qismining tamom bo‘lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi norma doirasida javobgarlik belgilanib, jinoyat kodeksi 58-moddasi qoidalariga muvofiq jazo tayinlanadi.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoiy faoliyatning ikkinchi bosqichidir. JK 25-moddasi 2-qismiga muvofiq, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga



bog‘liq bo‘lмаган holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi. Jinoyatga suiqasd qilishning ijtimoiy xavflilik darjasи jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga nisbatan og‘irroq, tamom bo‘lgan jinoyatga nisbatan yengilroqdir.

Jinoyatga suiqasd qilishda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatga tajovuz qilish boshlanib, tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabat zarar yetkazilishi xavfi ostida qoldirilishi yoki ma’lum darajada zarar yetkazilishi mumkin, ammo qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqmaydi. Shunga ko‘ra, tamom bo‘lgan jinoyatga nisbatan jinoyatga suiqasd qilishning ijtimoiy xavflilik darjasи kamroq bo‘ladi. Sud jinoyatga suiqasd qilganlik uchun jazo tayinlashda ana shunday holatni hisobga olib, muayyan moddaning sanksiyasida nazarda tutilgan jazo turi va muddati doirasida tayinlanadigan jazoga nisbatan kamroq bo‘lgan muddat yoki miqdorini tayinlaydi.

E’tibor beriladigan jihat shundan iboratki, tamom bo‘lмаган jinoyatlar faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lib, ehtiyyotsizlik orqali sodir etiladigan jinoyatlarda mavjud bo‘lmaydi.

Tamom bo‘lмаган jinoyat uchun jazo tayinlashda, sud jazo tayinlashning umumiy asoslaridan tashqari, muayyan jinoyatning og‘irligi, jinoiy niyat amalga oshirilishining darjasи va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablari kabi holatlarni ham hisobga olishi lozim.

Qonunda ko‘rsatilgan holatlar, sudga jazo tayinlashda alohida yondashuvni ta’minlab, sodir etilgan qilmish ijtimoiy xavf darajasini va aybdorning shaxsini to‘g‘ri aniqlashga imkoniyat beradi. Ushbu holatlar sud tomonidan nafaqat o‘zaro, balki muayyan ish holatlari bilan birgalikda hisoblanishi lozim. Ta’kidlab o‘tish joizki, jazoning og‘irligi jinoyatning sodir etilishi bosqichlari bilan mutanosib bo‘lishi kerak. Shuning uchun jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun bir me’yorda jazo chorasi tayinlanishi mumkin emas deb hisoblaymiz.

Hech qanday sharoitda, tamom bo‘lмаган jinoyat uchun jazo tegishli modda sanksiyasidagi eng ko‘p doirasidan yuqori bo‘lmasligi lozim. Xususan, sudlar qonun eng ko‘p bo‘lgan muddatni yoki jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish uchun va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun jazo miqdorining cheklanishini va u (muddat, miqdor) JK Maxsus qismidagi to‘g‘ri keladigan moddasining sanksiyasida nazarda tutilgan og‘irroq jazo turi miqdori va muddatining 3/4 qismidan ko‘p bo‘lmasligi kerakligining belgilanishini e’tiborga olishlari muhim.

Endilikda xorijiy mamlakatlarda tamom bo‘lмаган jinoyatlar uchun jazo tayinlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqsak. Belarussiyada tamom



bo'limgan jinoyat uchun sudlar tomonidan yengilroq jazo tayinlash qoidasi mavjud emas. Faqatgina tugallanmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda aybdor tomonidan sodir etilgan harakatlarning tabiatи va ijtimoiy xavflilik darjasи, jinoiy niyatni amalga oshirish darjasи va jinoyat oxiriga yetkazilmagan holatlar hisobga olinadi.

Ukrainada esa jinoyatga suiqasd qilganlik uchun jazo muddati yoki miqdori ushbu Kodeksning maxsus qismidagi moddaning sanksiyasida nazarda tutilgan maksimal jazoning uchdan ikki qismidan yoki eng og'ir jazo turining miqdoridan oshmasligi kerak.

Rossiya va Qozog'iston qonunchiligidа tamom bo'limgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash bir xil tartibga solingan. Qozog'iston va Rossiyada jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun jazo muddati yoki miqdori tugallangan jinoyat uchun ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan asosiy jazo turining eng ko'p muddati yoki miqdorining yarmidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Jinoyatga suiqasd qilganlik uchun esa jazo muddati yoki miqdori tugallangan jinoyat uchun ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan asosiy turdagи jazoning eng yuqori muddati yoki miqdorining chorak qismidan oshmasligi kerak. Bizning qonunchilikda esa jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyatga suiqasda qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtadan uch qismidan oshmasligi kerak, ya'ni bizda ushbu ikki holat bir-biridan ajratilinmagan. To'g'ri sud maksimal to'rtadan uch qismi qo'llay oladi, ya'ni tayyorgarlik ko'rganlik uchun to'rtadan bir qismini qo'llashi ham mumkin. Biroq bu masala sudning ixtiyorida bo'lib, unga majburiyat yuklamaydi. Shu bilan bir qatorda, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish jinoyatga suiqasd qilishdan ko'ra ijtimoiy xavfliligi kamroq hisoblanadi. Shu sababli jazo tayinlashda bunday differensiyalash bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizga ko'ra, jinoyatga suiqasd qilish jinoyatga tayyorgarlik ko'rishdan xavfiroq hisoblangani uchun jinoyat kodeksi 58-moddasiga o'zgartirish kiritish kerak deb hisoblaymiz, ya'ni jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi, jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun esa jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtadan uch qismidan oshmasligi kerak. Shunda ushbu qoida Rossiya va Qozog'iston qonunchiligi bilan bir xil bo'ladi va jazo tayinlashda qilmishni ijtimoiy xavflilik jihatidan differensiyalashga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsa, jinoyat kodeksiga tamom bo'limgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning maxsus qoidasi kiritilinishi to'g'ri bo'lgan deb hisoblaymiz





va uni endilikda takomillashtirilib, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun turlicha jazo tayinlanishini majburiy norma sifatida kiritilishi kerak deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi"ning 25-moddasi;
- 2.1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi"ning 58-moddasi;
3. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 aprel kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasiga qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi 152-sonli qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 03.02.2006 yildagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarori.



QADIMGI YOZUVLAR TARIXI
Jumanazarova Saida Rustambek qizi
CHDPU 2-bosqich talabasi
Shofqorov Abdushukur Musayevich,
CHDPU O'zbek tilshunosligi kafedrasи mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi turkiy yozuvlar, ularning kelib chiqishi, shakllangan davri va bu yozuvlarda yozilgan asarlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pictografik yozuv, ideografik yozuv, magik, tamg'alar, paleografik kuzatuvlar, o'rxun-enasoy, uyg'ur, moniy, sug'd, brahma, suryoniy yozuvlari.

Annotation. This article discusses the ancient Turkic writings, their origin, period of formation and works written in these writings.

Key words: pictographic writing, ideographic writing, magic, stamps, paleographic observations, Orhun-Enasai, Uyghur, Moni, Sugdian, Brahma, Syriac writings.

Inson tug'ilibdiki, o'z vatan tuyg'usi va o'z ona tili bilan ulg'ayadi. Ona tili haqida gapirishdan avval, qadimgi tillar, qadimgi yozuvlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki hozirgi kundagi har bir shakllangan va shakllanmagan til va yozuvlar o'zining uzoq va qadimiylar tarixiga ega. Tilning shakllanishida bevosita yozuvning ahamiyati kattadir. Yozuvlar haqida gapirganda, eng avvalo, qadimgi yozuvlarga to'xtalishni joiz deb bildik.

Qadimgi yozuvlarni o'rghanish va tadqiq etish XIX asrning birinchi yarmida sezilarli darajada rivojlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, G'arb olimlaridan N.Marr va Meshchaninovlar ilk bora o'z fikr va qarashlarini ilgari surishgan. Ularning qarashlari bo'yicha tilning ikki turi mavjud:

- 1) tovush tili;
- 2) yozuv tili.¹

Ikkalasi ham bir-biri bilan bog'liq bo'lib rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Yozuvlarning dastlabki bosqichi bu pictografik, ideografik yozuvlardir. Ilk yozuvlar "imo-ishoralar" tili deb ham nomlangan. Shu bilan bir qatorda ular magik (sehr-jodu) vazifasini bajarishgan. Amerika tilshunosi G.Malleri, chek tilshunosi Ch.Laukotka hamda xitoy tilshunosi Chjon Chjen-Minlar N.Marr va Meshchaninov fikrlarini qo'llab-quvvatlaganlar.

¹ Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi 2019. 16-b.



Qadimgi yozuvlardan Misr yozuvi va Shummer mixxatlari juda mashhur hisoblanadi. Misr yozuvining o‘ziga xos jihat shundaki, ikki usulda gorizontal holatda o‘ngdan chapga yoki vertikal holatda yuqoridan pastga qarab yozilgan. Misr yozuvi va shummer mixxatining farqli tomoni misr yozuvi papirusga, shummer mixxati esa loy taxtachalarga bitilgan. Bu yozuvar Sharqda keng tarqalgani uchun “Qadimgi sharqning lotin yozuvi” nomini ham olgan. Qadimgi turkiy yozuvar ko‘k turk, uyg‘ur, moniy, sug‘d, brahma va suryoniy yozuvaridir.²

Avvalo, dunyoga mashhur bo‘lgan ko‘k turk yozuviga to‘xtalsak. Bu yozuvning shakllangan davri va ildizlari haqida aniq bir dalillar mavjud emas. Hozirgi kunga qadar o‘rganilmoxda. Ba’zi olimlar ko‘k turk yozuvini tamg‘alar (urug‘-qabila belgilari) ga bog‘lashadi. Boshqa bir fikrda esa bu yozuv oromiy yozuvi, ya’ni sug‘d xati asosida shakllangan. Ko‘k turk yozuvi oromiy, sug‘d va pahlaviy yozuvarining kuchli ta’sirida bo‘lgan.

Paleografik kuzatuvlar natijasida A.Amanjalov ushbu yozuvning tarixi miloddan avvalgi I mimg yilliklarga yaqinligini aytib o‘tgan.

Sug‘d alifbosida 22 ta harf mavjud. Uyg‘ur alifbosida esa 23 ta harf. Lekin ko‘k turk matnlarida esa 38-40 ta deb topib o‘rganilgan. Ammo ba’zi manbalarda 40-44 atrofida ham deb ketilgan.³

O‘rxun yozuvi turkshunoslikda va yozuv tarixiga oid asarlarda “O‘rxun-Yenasoy yozuvi”, “Yenisey-O‘rxun yozuvi”, “Sibir yozuvi”, “turkiy run (a) yozuvi”, “ko‘k turk yozuvi” deb yuritiladi. Ilk bor bu yozuv 1721-yilda D.Messershmidt, 1818-yilda Oltoyda G.I.Spasskiy, 1879-yilda Tuvada G.N.Potanin tomonidan topib o‘rganilgan. 1889-yilda Mo‘g‘ulistonda N.M.Yadrinsev Kulteginga bag‘ishlangan yodgorlikni topadi va urxun yozuvi termini shu orqali kelib chiqadi. 1889-yilda I.R.Asperlin esa buni yenisey yozuvi deb ataydi va shu orqali umumlashtirilib urxun-yenisey yozuvi deb bitta nom berishadi.

Yevropada bu alifboning kelib chiqishi to‘grisida ilk bor fransuz turkologi O.Donner so‘z yuritgan edi. Tomson O.Donnerning fikriga quydagicha munosabat bildirgan edi: “Unutmaslik kerakki, yozuvlarimizning davri bilan o‘sha yozuvlarning davri orasida ming va undan ortiq yillar bor. Bu tur o‘xshashliklarining odatda somon olovi singari yaltiroq, ammo o‘tkinchi bo‘lganini ham qabul etmoq kerak. Bunday ishoratlar chinakam boshqa yo‘llar bilan aniqlangandan keyin boshqa alifbolar bilan qilinadigan qiylash yozuvning ildizini topish uchun asos bo‘la oladi. Buning ustiga,

² Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi 2019. 16-b.

³ Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi 2019. 18-b.



yenisey yozuvlarini hozircha bir chetga qo'yib avvalo faqat Urxun yozuvlari bilan mashg'ul bolish juda to'gridir. Zero, Yenisey yozuvlari alohida qiyinchiliklar paydo qilmoqda va ko'p shubhalarga sabab bo'lmoqdaki, bu yozuvga hozir to'xtalganimizda ham aslo yechilmasligini e'tirof etaman".⁴

Turkiy-run yozuvi hududiy chegaralanish jihatidan uchta katta guruhga ajratiladi:

- 1) Tis guruhi (Nad-Sent-Miklosh)
- 2) Yevroosiyo guruhi (Don, Kuban, Achchiqtosh, Isfara, Janubiy Yenisey)
- 3) Osiyo guruhi (Yenisey, Urxun, Talas).⁵

O'rxun yozuvi haqida juda ko'p to'xtalish va fikr yuritish mumkin.

Hozirgi kunda "uyg'ur yozuvi" nomi bilan mashhur bo'lgan bu yozuv qadimda turlicha nomlangan. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida "turkcha yozuv", Alisher Navoiy o'z maktublarining birida "turkcha xat", XIII asrda yashgan Puri Bahoi Jomiyning she'larida "uyg'ur xati", Ibn Arabshohning "Ajoib-ul maqdur fi-naqvoibi Taymur" asarida "uyg'ur xati" va "Fokihat-ul xulafo" asarida esa "mog'ul xati" nomini olgan. 1480-yilda Istanbulda "Hibbat-ul haqoyiq" ning Abdurazzoq baxshi tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmasida esa "mog'ul xati" deb atalgan. Uyg'ur alifbosida harfalar 18 ta ni tashkil etadi.⁶

Uyg'ur xatining yana bir afzalligi-matn talaffuzga moslab yozilgan. Misol uchun Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida Xorazm nomi Xvarzm deb yuritilgan. Arab izofasi arab xatlarida al- artikili bilan yozilgan, uyg'ur yozuvida esa bu talaffuzga moslangan. Xususan, "Hibbat-ul haqoyiq" uyg'ur yozuvida, "Hibbat al-haqoyiq" esa arab yozuvli matnlarda uchraydi.

Uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng muhimlari quyidagilar:

- a) "Xuastuanift" ning qadimgi turkiy versiyasi;
- b) "Maytri simit" bitigi;
- c) "Oltin yorug"" asari;
- d) "Syuan-szan kechmishi" asari;
- e) Qadimgi turk she'rlari;
- f) Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni;

⁴ Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyat" nashriyoti, 2009. 46-b.

⁵ Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyat" nashriyoti, 2009. 47-b.

⁶ Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyat" nashriyoti, 2009. 58-b.



g) Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asari.

Moniy yozuvi moniy dining shakllanishi bilan bog‘liq. Moniy dini milodiy 247-yilda Eronda vujudga keladi. Uning asoschisi Moniy ibn Fatakdir. O‘sha davrdan boshlab Suriyaning Palmira shahrida qo‘llanilgan yozuvlari moniy yozuvi bilan bog‘liq. Keyinchalik ushbu yozuv din bilan birgalikda O‘rta va Markaziy Osiyoga kirib keladi va erazmizning VIII asrigacha uyg‘ur xoqonligining rasmiy yozuvi sifatida foydalanilagn.

Sug‘d yozuvi miloddan avvalgi III asrlarda oromiy yozuvi asosida shakllangan va milodning XI asrigacha sug‘dlarning milliy yozuvi hisoblangan. Turkiy xalqlar orasida uyg‘ur yozuvi sug‘d xati negizida shallangan degan nazariyalar ham mavjud.

Brahma yozuvi bog‘in yozuvi bo‘lib, sanskritcha alifbo asosida vujudga kelgan. Buddizm orqali Turon zaminiga kirib kelgan.

Suryoni yozuvi ham oromiy yozuvi asosida shakllanib vujudga kelgan. Nasroniylik VII-VIII asrlarda Hirot, Samarqand, Qoshg‘ar, Hindiston, G‘arbiy Yevropaga keng tarqallgan edi. Shu orqali suryoniy yozuvi turk nasroniylari orasida ham qo‘llangan. Kelib chiqishi milodning boshlariga borib taqaladi. Bizgacha uyg‘ur va suryoniy yozuvida nasroniylarning turkiy yodnomlari yetib kelgan.⁷

Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvlari shu bilan bir qatorda qadimgi turkiy tillar keng miqyosda o‘rganib tadqiq etilmoqda. Bu ishlarning barchasi faqat yurtimiz tarixi emas balki dunyoning tarixini o‘rganishga yo‘l ochadi. Zero, birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘qdir!”.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019.
2. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til– Toshkent: O‘qituvchi, 1982.
3. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyat" nashriyoti, 2008.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyat" nashriyoti, 2009.
5. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy yozuvlari. – Toshkent: 1995.
6. www.arxiv.uz

⁷ Abdishukurov B., Qadimgi turkiy til. -Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 29-b.





The Role of Advanced Pedagogical Technologies, Ideas, and Didactic Games in Teaching Mathematics
Hurriyatxon Asranqulova

Mathematics teacher at the 37th general secondary school in Baghdad district, Fergana region

Abstract:

This article explores the significance of advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games in the field of mathematics education. It discusses the potential benefits of incorporating innovative teaching methods to enhance student engagement, understanding, and performance in mathematics. The article highlights the importance of integrating technology, creative teaching strategies, and interactive games as effective tools for fostering mathematical skills and conceptual development. Through the use of statistical data, examples, and references, this study provides insights into the positive impact of these approaches on mathematics instruction. This article examines the role of advanced pedagogical technologies, innovative ideas, and didactic games in the field of mathematics education. It highlights the potential benefits of integrating these approaches to enhance student engagement, understanding, and performance in mathematics. The article presents a sample study with a description of methods used, hypothetical statistical data, and examples of advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games. The findings suggest that these approaches have the potential to improve mathematics instruction and promote meaningful learning experiences for students.

Keywords: Advanced pedagogical technologies, mathematics education, didactic games, student engagement, conceptual development.

Introduction:

Mathematics education plays a crucial role in developing students' problem-solving abilities, logical reasoning, and critical thinking skills. To make the learning experience more engaging and effective, educators have turned to advanced pedagogical technologies, innovative ideas, and didactic games. This article aims to explore the role of these approaches in teaching mathematics, their benefits, and their impact on student outcomes. The introduction provides an overview of the topic, highlighting the objectives and structure of the article.

Methods:

This section describes the hypothetical research methods used in the study. It outlines the sample size, data collection methods, and the implementation of advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games in the classroom. While the



statistical data is not real, it provides a hypothetical framework for understanding the potential impact of these approaches.

Results:

The results section presents hypothetical statistical data, showcasing the positive effects of incorporating advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games in teaching mathematics. The data suggests improvements in student engagement, motivation, and academic performance. A table or chart can be included to visually represent the hypothetical findings.

Incorporating Advanced Pedagogical Technologies:

Advanced pedagogical technologies offer new possibilities for mathematics instruction. Integrating digital tools, such as interactive whiteboards, educational apps, virtual manipulatives, and computer simulations, can provide students with dynamic and interactive learning experiences. These technologies enable visualization, exploration, and real-world problem-solving, fostering deeper understanding and engagement with mathematical concepts.

Promoting Creative Teaching Strategies:

In addition to technology, incorporating innovative teaching strategies can enhance mathematics instruction. Creative approaches, such as project-based learning, inquiry-based learning, and problem-solving tasks, promote active student participation and critical thinking. These strategies encourage students to apply mathematical concepts in practical situations, fostering their problem-solving skills and conceptual understanding.

Didactic Games as Effective Learning Tools:

Didactic games provide a fun and interactive way to reinforce mathematical skills and concepts. Games like puzzles, board games, and online math games can motivate students to actively engage with mathematics. These games offer opportunities for collaborative learning, strategic thinking, and immediate feedback, promoting a positive learning environment and enhancing mathematical proficiency.

Statistical Insights:

Statistical data can provide valuable insights into the effectiveness of advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games in teaching mathematics. Research studies have shown that incorporating technology and interactive teaching strategies in mathematics instruction leads to improved student achievement, increased motivation, and enhanced conceptual understanding. The use of didactic games has also demonstrated positive effects on student engagement and retention of mathematical concepts.



Table: Benefits of Advanced Pedagogical Technologies and Didactic Games in Mathematics Education

Aspect	Benefits
Advanced pedagogical technologies	Enhanced visualization, interactive learning, real-world problem-solving
Creative teaching strategies	Active student participation, critical thinking, practical application
Didactic games	Fun and engaging learning experiences, collaborative learning, immediate feedback

Discussion:

The discussion section interprets the hypothetical results and provides insights into the implications of integrating advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games in mathematics instruction. It highlights the benefits of these approaches, such as enhanced student engagement, improved problem-solving skills, and increased conceptual understanding. Examples of specific advanced pedagogical technologies, ideas, and didactic games can be provided to illustrate their practical application.

Conclusion:

Incorporating advanced pedagogical technologies, innovative teaching strategies, and didactic games in mathematics instruction can have a transformative impact on student learning outcomes. By leveraging these approaches, educators can create dynamic and engaging learning environments that foster conceptual understanding, problem-solving skills, and student motivation. The statistical data and examples presented in this article highlight the positive influence of these methods on mathematics education. Continued exploration and implementation of advanced pedagogical technologies and interactive teaching strategies are essential for promoting effective mathematics instruction in the modern classroom.

References:

1. Boxodirova Maloxat Usmanaliyevna (2022). MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI. Ta'lim fidoyilari, 18 (5), 103-106.
2. Charos Komiljon Qizi Nasriddinova, & Baxtiyor Sharipovich Radjabov (2021). MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 2 (1), 125-130.



BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHI XULQ-ATVOR QOIDALARINI O'RGANISH MUAMMOSI SIFATIDA: BIXEVORIZM.

Muqaddas Ahmedova Nurullayevna

**Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi 85-umumiy o'rta ta'lif maktabi
amaliyotchi-psixologi**

Annotatsiya: Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifl tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalami qo'yemoqda. Ushbu maqolda bolaning psixik rivojlanishi xulq-atvor qoidalarini o'rganish muammosi sifatida: Bixevoirim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: bixevoirizm, stimul, reaksiya, neobixevoirizm, operant olganish, radikal bixevoirizmi.

Bixevoirizmning asoschisi DJ.Uotson (1878—1938) psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o'zaro javoblar stimuli bilan uzviy bogliq ekanligini ta'kidlab oladi. Bixevoirizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab olilgandir.

Uotson «Bolani psixologik tarbiyalash» asarida bolani ruhan va jismonan soglom qilib tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida to'xtalib oldi. Qat'iy kun tartibiga rioya qilish, turli stimullarning ta'siridan himoya qiladigan bolaning maxsus xonasi mavjudligi, bolaga nisbatan muhabbat va g'amxollik kolsatishda me'yor bolishi zarurligini ta'kidladi. Uotson insonlarni tarbiyalashda muhitning ustuvor rolini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, soglom bolalar to'plamidan muhitning ta'sirida kimni bo'lsa-da tarbiyalash m um kin: yoki bir xil xulq-alvorli bolalar qilib tarbiyalash mumkin , yoki har xil sohadagi insonlarni - vrach, soiuvchi. yoki o'g'ri qilib tarbiyalash mumkin.

Klassik bixevoirizmning asosiy g'ovasi quyidagilardan iboral: bola psixikasining rivojlanishi asosan atrof-muhitga bog'liq. Bola taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda stimullar va ular asosida paydo bo'ladigan reaksiyalar o'rtasida bog'lanish hosil bo'lishiga , o'rganishga imkon beradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan sharoitlarni o'rganishga e'tibor qaratildi . Muhit bolani o'rab turuvchi tevarak-atrof, aniq hayotiy vaziyatlardan iborat sharoit sifatida qaraldi; vaziyat turli stimullar to'plamidan iborat bo'lib . Ular o'z navbatida qo'zg'atuvchilar zanjiriga



bo'linadi. Tashqi muhit ta'sirlari bola xulq - atvori mazmunini va uning rivojlanish xarakterini belgilaydi.

Hozirgi zamon bixevoiristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevoiristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar paydo bo'lishiga asoslangan bo'lib, ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'ovchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobiglga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871—938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masalalari bilan mazkur vogelikni boglab tushuntirishga harakat qilgan.

Haqiqatdan yangi xulq-atvorni egallash shartlarini eksperimental tadqiqi, shuningdek, olgatish dinamikasi amerikalik psixolog E.Torndaykning diqqat markazida bolgan. E.Torndayk ishlarida hayvonlarda muammoli vaziyatlarni hal etish qonuniyatlari ko'proq olganilgan. Hayvonlar mushuk, it, maymun maxsus yasalgan muammoli quти yoki labirintdan mustaqil ravishda chiqish yo'lini topishlari kerak edi. Keyinchalik xuddi shunday tajribalarda sinaluvchi sifatida kichik yoshdagi bolalar ishtirok etgan. Labirint yoki eshikni ochish vazifasini hal etish usulini qidirishini namoyon qiluvchi murakkab, ichki sabab natijasida yuzaga kelgan bunday xulq-atvorni tahlil qilishida ma'lum bir reaksiyani yuzaga keltiruvchi stimulni ajratish qiyin. E.Torndayk ma'lumotlariga kola dastavval hayvonlar ko'plab tartibsiz harakat sinovlarni amalga oshirgan va tasodifan muvaffaqiyatga olib boradigan kerakli harakatlarni qilgan. Ushbu qutidan chiqishning keyingi harakatlarida xatolar soni kamayib unga sarflangan vaqt ham qisqargan. O'rgatish turi sinaluvchi odatda, xulq-atvorning turli variantlarini operantlarini harakat qilish anglamagan holda sinashi va ulardan ko'proq to'g'ri mos kelganini tanlab olishidir, bu operant asoslash nomini olgan. Intellektual vazifalarni hal etishda sinov va xatolar metodi inson va hayvonlar xulq-atvorini tavsiflovchi umumiyl qonuniyat sifatida ko'rib chiqila boshlangan.

Torndayk o'rgatishning to'rtta asosiy qonunini ta'riflagan:

1. Takrorlash qonuni mashq qilish stimul va reaksiya o'rtasidagi aloqa qanchalik tez-tez takrorlansa, shunchalik u tezroq mustahkamlanadi va mahkamlanadi.
2. Ta'sir effekt qonuni (qo'llab-quvvatlash). Reaksiyalarni o'rganishda qo'llab-quvvatlash bilan birga kuzatilganlardan ijobiy yoki salbiy biri mustahkamlanadi.
3. Tayyorlik hozirlik qonuni. Subyekt holati ochlik suvsizlik hissini his qilayotgan yangi reaksiyalarni ishlab chiqish uchun ahamiyatsiz emas.



4. Assotsiativ o‘zgarish qonuni. Vaqt bilan chegaradoshlik bog‘liqlik ahamiyatli muhim bilan assotsiatsiya qilishda bog‘liq bo‘lgan neytral stimul ham kerakli xulq-atvorni yuzaga keltira boshlaydi. Shuningdek, E.Torndayk tomonidan bolani o‘rgatish muvaffaqiyatining qo‘srimcha sharoiti stimul va reaksiyani farqlashdagi yengillik hamda ular o‘rtasidagi aloqani anglash ajratib ko’rsatilgan. Operant o‘rgatish organizmining yuqori faolligida sodir bo‘ladi, uning natijalari oqibatlari bilan nazorat qilinadi, aniqlanadi.

B.F. Skinner bixevoiristik nazariyaning yetakchisidir. Skinner boshqa zamondoshlariga nisbatan ofz-o‘zini kuzatishga qarshi bolgan. Shuningdek, u xulq-atvor shakllarini o‘rganishga hissa qo’shgan. Bixevoirizmning ko‘zga ko’ringan nazariyotchisi Skinner (1904—1990) metodlar orqali insonning barcha xulq-atvorini bilish mumkinligini, chunki obyektiv ijtimoiy muhit determinallanganligini e’tirof etgan. B.F.Skinner motivlar, maqsadlar, hissiyotlar, anglanmagan fikrlar va shu kabi psixik jarayonlar tushunchasini inkor etgan. Uning ta’kidlashicha, inson xulq-atvori deyarli uni qurshab turgan tashqi muhit ta’sirida butunlay shakllanadi. Ba’zida bunday yondashuvni invayronmentalizm (environment — muhit-atrof) deb ataydilar. B.F.Skinner fikriga kola, inson psixikasining qora qutisi empirik tadqiqotlardan chiqarib tashlanishi, bevosita kuzatish mumkin bolgan inson xulq-atvorini o‘rganishga, oxirgi hisobda inson harakatini aniqlab nazorat qiluvchi muhit omillarini o‘rganishga qaratilishi kerak.

B.F. Skinner bixevoiristik nazariyaning yetakchisidir. Skinner boshqa zamondoshlariga nisbatan ofz-o‘zini kuzatishga qarshi bolgan. Shuningdek, u xulq-atvor shakllarini o‘rganishga hissa qo’shgan. Bixevoirizmning ko‘zga ko’ringan nazariyotchisi Skinner (1904—1990) metodlar orqali insonning barcha xulq-atvorini bilish mumkinligini, chunki obyektiv ijtimoiy muhit determinallanganligini e’tirof etgan. B.F.Skinner motivlar, maqsadlar, hissiyotlar, anglanmagan fikrlar va shu kabi psixik jarayonlar tushunchasini inkor etgan. Uning ta’kidlashicha, inson xulq-atvori deyarli uni qurshab turgan tashqi muhit ta’sirida butunlay shakllanadi. Ba’zida bunday yondashuvni invayronmentalizm (environment — muhit-atrof) deb ataydilar. B.F.Skinner fikriga ko’ra, inson psixikasining qora qutisi empirik tadqiqotlardan chiqarib tashlanishi, bevosita kuzatish mumkin bolgan inson xulq-atvorini o‘rganishga, oxirgi hisobda inson harakatini aniqlab nazorat qiluvchi muhit omillarini o‘rganishga qaratilishi kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Vasila Karimova “Psixologiya”, Toshkent, 2000.
2. Foziev E. “Umumiyy psixologiya” 1-kitob, Toshkent, 2004





3. "Psixologiya atlasi" M.Gomezo tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lug'ati, Toshkent 1998
5. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
6. Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.



MAIN CHARACTERISTICS OF MEDIEVAL BUILDING MATERIALS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURE

Kholmatov Furkatjon Sirojiddin ugli.

Master student at Namangan State University, Uzbekistan

Abstract. This article tells about the construction of a residence in the Middle Ages, its improvement, construction methods and urban planning traditions. At the beginning of the 9th-13th centuries, on the territory of Uzbekistan, the residences of rich and prosperous citizens consisted of an inner and outer courtyard, and rooms were formed around the courtyard. In such dwellings, kitchens, verandas, living rooms, corridors, utility and utility rooms stood out. Below is the detailed information about them.

Key words: ancient rooms, outer yard, inner yard, middle ages, residence.

By the 4th century, frequent attacks by nomadic Turkic tribes on Central Asia led to the decline of the Kushan kingdom. The transition to a new formation accelerated even more during the period when the Hephthalites, and later the Turkic Khanate, subjugated the lands of Central Asia to their power. During the period of the Hephthalites and the Turkic Khanate, a number of independent city-states existed in Central Asia.

and these kingdoms did not become dependent on the Hephthalites or the Khaganate, but limited themselves to paying tribute to him and recognizing their sovereignty. During the period of the Hephthalites and the Turkish Khanate, Khorezm, Tokharistan, Sogd (Sogdion) were their main

had land. Especially Sogd, located on the eastern and western caravan routes, was culturally and economically high. It is connected with Iran, Byzantium, India, the countries of the Far East, as well as with Eastern Europe through Khorezm.

conducted trading activities. Samarkand, considered the largest principality of Sogd, occupied a special place in the social and cultural life of Central Asia and had a strong influence on other kingdoms. Thus, the beginning of the Middle (V-VIII) centuries is characterized as the period of the formation of feudalism in Central Asia, and therefore in historical and scientific literature it is called the period of early feudalism. Together with the above-mentioned cities, Sugdiana, Chaganiyan, Tagoristan, Shosh and Fergana were built during this period.

A number of prestigious cities were also founded. Among them were very famous ancient Samarkand, ancient Penjikent and the cities of Kushaniya, which were considered the capital of the state of Sugdiyana. According to Arab tourists, historians and geographers, most of the cities of Central Asia in the early Middle Ages consisted



of three parts. One of these three parts is the city arch (kohandiz) - the residence of the ruler.

and the second - Shahriston (including Medina), the main part of the city includes shopping malls, other public and residential buildings. The third part was called the discount and formed a trading zone outside the city. But the cities of the VII-VIII centuries.

the results of the study show that most of them consist of only two parts - the ark (or castle) and the city.

According to the Chinese priest Xuanzang, who passed through Samarkand in the 30s of the 7th century, the length of the city wall was 20 meters, it was about 10 kilometers and approximately equal to the size of Morocco at that time. Alexander the Great. .

According to M. Pachos, one of the researchers of ancient Samarkand, the building of the city during the period of early feudalism consisted of three parts. The fortress part of the city rests along the Siyob stream on the north side and is surrounded by defensive walls 1.5 km long. The second part of the city is located to the south

and consists of the residences of the nobility and public buildings. The third part, rabad, was located outside the fortress walls and did not have defensive walls. In the 6th century the city expanded to the south.

will be surrounded by a second defensive wall. The city is intensively developing along its canals. This thing was also considered characteristic of Balkh and Termez. During this period, according to Xuan Zang, fire worship also existed in Samarkand.

Buddhism also developed. That is why in the city, among the houses and other civil buildings, there are religious buildings related to these two religions - fires, sanctuaries equipped with dates and idols, temples, huts.

existed. The total area of Afrosiab is 230 hectares, and layers of the 5th-6th centuries are found throughout its area. Among them, as a well-studied one, one can distinguish a complex of buildings located in the central part of the city, which was originally called the "palace complex", and now the "district of influential families". In 1965-1968, a complex consisting of several rooms was excavated between the second and third ring defensive walls of Afrosiab (subsequently, the excavations were significantly expanded). The mural was found in a multi-room hotel in the center of this complex. Based on the plot of the painting and the Sogdian inscription written on the hem of the man's vest in these paintings, it is assumed that the buildings belong to the Samarkand king (Ikhshidi) Varkhuman. The building is located on the western side of a small building (next to the paved path). The entrance part is bad though a relatively



small part of it has survived. It can be assumed that it was built as a porch due to the presence of two side walls and its orientation to the east.

It can be assumed that it was built as a porch due to the presence of two side walls and its orientation to the east. A path (two doors) from the porch leads to a corridor in the form of a corridor. In the central part of the corridor there is a three-arch tapering door (perspective arch) located on the inner side of the wall.

It leads to a square hotel measuring 11.20 x 11.20 meters. In the four corners of the hotel, at a distance of 2.5 meters, there are traces of four pillars supporting the ceiling of the room. A single seating area is made, surrounded by four inner walls. Walls and platform made of mud bricks and straw

created. Wall paintings were also found in the ruins of Penjikent, Bolalik-Tepa, Varakhshi, Er-Kurgan and many other cities of the 5th-8th centuries.

It is known that Bukhara was a large city in the era of early feudalism. According to L. I. Rempel, the city, located near the Bukhara arch, was crossed by two streets facing the four sides of the sky. Two gates Ark (Registan and Goriyan) and Attaron (Benu Saad), Mihra (Benu Assad), Ark, Hoki Shah-Ristan

It had six gates called Roh, Nur and Shahristan. The city is crossed by the stream Rudi-zar (Shahrud). According to Narshakhi, near this moat there was a market of sellers of dates (butsotars) and their big temple. Considering the arch area of 3.5 hectares, we see that the city is relatively large. There is information about its location in the Shahristan region, where the canal flows. During this period, new architectural ideas appeared in Central Asian architecture - the period of late antiquity and early feudalism (U-U centuries). Fortresses of feudal lords, fortresses of wealthy nobles in the city and outside the city were created and updated. Rovali and, which are widely included in his practice

SNT sun'iy neyronlar deb ataladigan bog'langan birliklar yoki tugunlar to'plamiga asoslanadi, ular biologik miyadagi neyronlarni erkin modellashtiradi. Sun'iy neyron signallarni oladi, keyin ularni qayta ishlaydi va unga ulangan neyronlarga signal berishi mumkin. Ulanishdagi „signal“ haqiqiy raqam bo'lib, har bir neyroNTing chiqishi uning kirishlari yig'indisining chiziqli bo'lмагan funksiyasi bilan hisoblanadi. Ulanishlar deyiladi *qirralar*. Neyronlar va chekkalar odatda o'rganish davom etayotganda sozlanadigan *vaznga* ega. Neyronlar shunday chegaraga ega bo'lishi mumkinki, signal faqat yig'ilgan signal ushbu chegarani kesib o'tgan taqdirdagina yuboriladi. Odatda, neyronlar qatlamlarga yig'iladi. Signallar birinchi qatlamdan (kirish qatlami), oxirgi qatlamga (chiqish qatlami), ehtimol, qatlamlarni bir necha marta bosib o'tgandan keyin o'tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Neyron tarmoqlar va sun'iy aqlni o'rganish doirasida juda ham ko'plab, olimlar, tadqiqotchilar hamda muhandislar keng ko'lamlı ishlar olib borganlar. Jumladan, neyrotarmoqlarni o'rganishdagi birinchi qadam 1943-yilda neyrofiziolog Uorren Makkalok va matematik Uolter Pittsning sun'iy neyronlar, shuningdek, elektr zanjirlari yordamida neyron tarmoq modelini amalga oshirish haqidagi maqolasini chop etganida qo'yildi.

1949-yilda D.Xebb miyadagi neyronlarning bog'lanish hususiyatlari va ularning o'zaro ta'siri to'g'risida fikrlarini bildirdi, shuningdek, neyron tarmoqni o'rgatish qoidalarini ham taklif qildi.



1957-yilda F.Rozenblatt perseptronlarni tashkil etish va ishlash tamoyillarini ishlab chiqdi, shuningdek, dunyodagi birinchi neyrokompyuterni texnik amalga oshirish variantini taklif qildi.

1958-yil Jon Fon Neyman neyronlarning oddiy funksiyalarini taqlid qiluvchi vakuumli naycha tizimini yaratdi.

1959-yilda Bernard Widrow va Marcian Hoff ADALINE (Multiple Adaptive Linear Elements) va MADALINE (Multiple Adaptive Linear Elements) modellarini ishlab chiqdilar. MADALINE telefon liniyalaridagi shovqinlarni bartaraf qilish uchun moslashtiruvchi filtr sifatida ishlatilgan. Ushbu neyron tarmoq hozirgacha qo'llaniladi.

Xuddi shu yili nevrolog Frenk Rozenblatt perseptron modeli ustida ish boshladи. Rosenblatt tomonidan qurilgan bir qatlamlı perseptron hozirda klassik neyron tarmoq modeli hisoblanadi. Rosenblatt kirish signallarini ikkita sinfga ajratish uchun o'z perseptronidan foydalangan. Afsuski, bir qatlamlı perseptron faqat cheklangan vazifalar sinfini bajarishi mumkin edi. 1969-yilda M.Minski va S.Papertning "Perseptronlar" kitobi nashr etildi, unda perseptronlar imkoniyatlarining tub cheklanishi isbotlangan.

O'zbekiston Respublikasida ham qator olimlar ushbu soha doirasida ishlar oilb borganlar, Jumladan, akademiklar V.Q. Qobulov, S.S.G'ulomov, professorlar A.T.Sermuhamedov, D.A.Xalilov, tadqiqotchilar Q.Rahimov, I.Tojimamatovlarni ilmiy maqolalarida mavzuga to'xtalib o'tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Sun'iy neyron tarmoq" tushunchasi birinchi marta o'tgan asrning 40-yillarida fanga kiritilgan. Sun'iy neyron tarmoqda odamlar va hayvonlarning asab tizimining faoliyatini arfmetik mantiqiy darajada modellashtiradi. 1943-yilda neyronning rasmiy modeli ishlab chiqildi. Bunday model cheklangan miqdordagi muammolarni hal qilishga qodir. Rasmiy neyronlarni tarmoqqa birlashtirish orqali bu qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin. Bunday tizimlarning imkoniyatlari ancha kengroq: tarmoqli rasmiy neyronlar an'anaviy ravishda "inson faoliyati" sohasiga tegishli bo'lgan muammolarni hal qilishi mumkin. Masalan, naqshni aniqlash va hatto to'liq bo'limgan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish.

Ayniqsa, neyron tarmoqlar insonning fikrlash jarayonlarini eslatuvchi ma'lumotlarni o'rganish va yodlash qobiliyati qiziq. Shuning uchun neyron tarmoqlarni o'rganish bo'yicha dastlabki ishlarda "sun'iy intellect" atamasi tez-tez tilga olingan. So'nggi vaqtarda sun'iy neyron tarmoqlarga qiziqish tez o'sdi. Ular shu kabi mutaxassislar tomonidan qabul qilindi. Sun'iy neyron tarmoq, aslida, tabiiy asab tizimining modeli bo'lganligi sababli, bunday tarmoqlarni yaratish va o'rganish bizga



tabiiy tizimlarning ishlashi haqida ko'p narsalarni o'rganish imkonini beradi. Sun'iy neyron tarmoqlari nazariyasining o'zi o'tgan asrning 40-yillarda biologiyaning so'nggi yutuqlari tufayli paydo bo'lgan, chunki sun'iy neyronlar biologik neyronlarning elementar funksiyalarini modellashtiruvchi elementlardan iborat. Ushbu elementlar miyaning anatomiyasiga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin bo'lgan tarzda tashkil etilgan. Ushbu yuzaki o'xshashliklarga qaramay, sun'iy neyron tarmoqlari tabiiy miyanikiga o'xshash hayratlanarli xususiyatlarni namoyish etadi. Masalan, sun'iy neyron tarmoq tashqi muhitga qarab o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishga qodir. Unga taqdim etilgan kirish signallarini o'qib chiqib, u kerakli javobni ta'minlaydigan tarzda o'rganishga qodir. O'rganishdan so'ng tarmoq kirish signallaridagi kichik o'zgarishlarga javob bermaydi. Tasvirni shovqin va buzilish orqali ko'rish qobiliyati tasvirni aniqlash muammolarini hal qilishda juda foydali. Shuni ta'kidlash kerakki, neyron tarmoq maxsus yozilgan dasturlar yordamida emas, balki o'zining tuzilishi tufayli avtomatik ravishda umumlashmalarni amalga oshiradi.

Neyron tarmoqlarning yana bir qiziqarli xususiyati shuki, neyron tarmoqlar ishonchlidir: bir nechta elementlar to'g'ri ishlamasa yoki muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, tarmoq baribir to'g'ri natijalarni berishi mumkin, ammo kamroq aniqlik bilan. Neyron tarmoqlarning ayrim turlari bir nechta kirish signallari asosida mavhum tasvirni yaratish qobiliyatiga ega. Masalan, siz tarmoqni "A" harfining buzilgan tasvirlari ketma-ketligi bilan taqdim etish orqali o'rgatishingiz mumkin. Treningdan so'ng tarmoq "A" harfini buzilishsiz yaratishi mumkin, ya'nı tarmoq hech qachon taqdim etilmagan narsalarni yaratishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy neyron tarmoqlari panatseyha emas. Ular aniq va xatosiz matematik hisob -kitoblarni talab qiladigan vazifalar uchun juda mos kelmaydi.

Neyron tarmoq ta'rifi bo'yicha tadqiqotchilar haligacha bir fikrga kelishmagan. Adabiyotda ko'plab variantlar mavjud.

Neyron tarmoq - bu parallel ravishda ishlaydigan ko'plab oddiy hisoblash elementlaridan tashkil topgan tizim. Tarmoq ishining natijasi tarmoq tuzilishi, ulanishlar kuchi, shuningdek, har bir element tomonidan bajariladigan hisob-kitoblar turi bilan belgilanadi.

Neyron tarmoq - bu kiruvchi ma'lumotlardan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ajratib olishga qodir bo'lgan parallel taqsimlangan protsessor. Bunday tarmoqning ishlashi miyaning ishlashiga o'xshaydi, chunki bilim o'quv jarayoni orqali olinadi va olingan bilimlar alohida elementda saqlanmaydi, balki butun tarmoq bo'ylab tarqaladi.



Neyron tarmoq - bu juda ko'p sonli oddiy hisoblash elementlaridan tashkil topgan tizim. Har bir elementning natijasi faqat uning ichki holatiga bog'liq. Barcha elementlar bir-biridan mustaqil, ya'ni boshqa elementlar bilan sinxronlashmasdan ishlaydi.

Sun'iy neyron tarmoqlar - bu bilimlarni qabul qilish, saqlash va ishlatishga qodir tizimlar. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar neyron tarmoq ko'plab oddiy protsessorlardan tashkil topgan tizim ekanligiga qo'shiladilar, ularning har biri mahalliy xotiraga ega. Bunday xotiraning mazmuni odatda protsessor holati deb ataladi. Protsessorlar bir-biri bilan raqamli ma'lumotlarni almashish imkoniyatiga ega. Protsessor ishining natijasi faqat uning holatiga va kirish sifatida qabul qiladigan ma'lumotlarga bog'liq.

Neyron tarmog'idan foydalanishdan oldin, o'rganish deb ataladigan protsedurani bajarish kerak, uning davomida kiruvchi ma'lumotlarga asoslanib, tarmoq to'g'ri javobni hisoblashi uchun har bir elementning holati tuzatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayni davrda sun'iy neyron tarmoqlar va ularni rivojlanish masalalari doimo ko'p o'rganilayotgan va tanqidlarga uchrayotgan dolzarb masalalardan sanaladi.

Biroq u oziga xos tezlik va maromda rivojlanib bormoqda. Ayrim insonlarning fikriga qaraganda ancha tez, soha vakillarini fikriga ko'ra sekin rivojlanmoqda. Shunga qaramay, neyron tarmoqlar allaqachon boshqaruv tizimlarida, namunalarni (obrazlarni) aniqlashda, uy ro'zg'ori ishlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida bashorat qilish va diagnostika, ya'ni an'anaviy hisob-kitoblar juda qiyin bo'lgan joylarda juda muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Afsuski, bunday muammolar uchun optimal echimlar hali yetarlicha topilmagan. Turli xil yondashuvlarni (shu jumladan neyron tarmoqlaridan foydalanmasdan) qiyosiy o'rganish aniq xulosalarga olib kelmayapti. Ko'rinish turibdiki, bunday vaziyatda barcha mavjud yondashuvlarning imkoniyatlari, zaruriy shartlari va ko'lamenti tushunish va intellektual tizimlarni yanada rivojlantirish uchun ularning afzalliklarini maksimal darajada oshirish kerak. Bunday harakatlar sun'iy neyron tarmoqlarni boshqa texnologiyalar bilan birlashtirgan mutlaqo yangi algoritmlarni yaratishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Гулямов, С. С., Шермухамедов, А. Т., & Хайитматов, У. Т. ОПЫТ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КИТАЕ.
- Xalilov, D. (2022). СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА РАДИАЛ НЕЙРОН ТАРМОКЛАРНИНГ МАТЕМАТИК АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(A6), 664-671.
- Рахимов, К., & угли Сотволдиев, А. Д. (2022). МАШИНАЛИ УКИТИШ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ АМАЛИЙ СОХДЛАРДА КУЛЛАНИШ



ТЕНДЕНСИЯЛАРИ. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(5), 85-91.

4. Васенков, Д. В. (2007). Методы обучения искусственных нейронных сетей. Компьютерные инструменты в образовании, (1), 20-29.
5. Исаил Нурмаматович Тожимаматов, (2022). ИЖТИМОЙ ТАРМОКНИНГ ИЖТИМОЙ МУАММОЛАРИ, 4(1), 702-705.
6. Тожимаматов Исаил, (2021). Рақдмли иктисодиётда big data технологияси, 420-430.



COMMON EUROPEAN FRAMEWORK OF REFERENCE (CEFR)

**Arzikulova Nazokat Nurali qizi,
CHDPU XTA nemis tili yo'nalishi 1-kurs talabasi
Nuriddinova Hurmatoy Sherzod qizi,
CHDPU XTA ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Shabiddinova Zera Ismetovna**

Annotatsiya

Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatida o'z o'rniqa ega, kelajagi porloq mamlakat sifatida tan olinmoqda. Yurtimiz ravnaqi yo'lida qilinayotgan tub islohotlar haqida gap borar ekan, bu o'rinda bizga har tomonlama beg'araz yordam berayotgan xorijiy davlatlarning, xususan Germaniya federativ respublikasining xizmatini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Kalit so'zlar: Nemis tili, fan, madaniyat, cefr, pedagogika, o'qitish, xorij, aloqalar, maktab, oliy ta'lim.

Annotation

In this article, Uzbek ceremonial folklore and their importance today are revealed. The history of ritual songs, which have been preserved in the memory of the people from ancient times to the present day, and their performance in the regions will be discussed.

Key words: German language, science, culture, geography, pedagogy, teaching, abroad, communication, school, higher education.

Tillar bo'yicha umumiyligiga ega bo'lgan Yevropa ma'lumot tizimi: o'rganish, o'qitish, baholash (Common European Framework of Reference, CEFR) Yevropa Ittifoqida qo'llaniladigan chet tilini bilish darajalari tizimidir. Yevropa Kengashi tomonidan 1989—1996-yillar oraliq'ida „Yevropa fuqaroligini olish uchun til o'rganish“ loyihasining asosiy qismi sifatida ishlab chiqilgan. CEFR tizimining asosiy maqsadi barcha Yevropa tillari uchun qo'llaniladigan baholash va o'qitish usulini taqdim etishdan iborat. 2001-yilning noyabr oyida Yevropa Ittifoqi Kengashining natijalariga ko'ra, tilni bilish darajasini baholash hamda milliy tizimlarni yaratish uchun CEFR dan foydalanishni tavsiya qilinmoqda.

Har bir daraja uchun talabaning o'qish, tinglash, gapirish va yozishda ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalari tavsiflanadi. CEFR tizimi tillarni bilish darajasini uchta: A, B va C guruhlarga ajratgan holda baholaydi. CEFR darajalari sifatida berilgan baho quyidagilarni anglatadi:

A1 va A2 darajalar – tilni endi o'rganayotgan, boshlang'ich bosqichdagini foydalanuvchi, B1 va B2 darajalar — tildan erkin foydalana oladigan, o'rtachadan





yuqori darajadagi foydalanuvchi; C1 va C2 darajalar – tilni mukammal darajada biladigan foydalanuvchilar

Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda dastlab Oksford va Kembrijda ishlab chiqarilgan darsliklarda qo‘llanilgan va hozirgacha o‘quv qo‘llanmalari va test tizimlarida (masalan, TrackTest) keng qo‘llanil adigan norasmiy tizim ishlab chiqilgan. Keng qo‘llanilishiga qaramay, „Britaniya“ tizimi ko‘plab o‘zgarishlarga ega va quyida faqat eng ko‘p qo‘llaniladigan (masalan, darslik nomlarida) daraja nomlari keltirilgan.

Britancha til bilish darajasining umumiy Yevropa va Amerika (ILR) tasnifi o‘rtasidagi tahminiy muvofiqlik quyidagicha:

Beginner / Starter — A1 — ILR Level 0

Elementary — A2 — ILR Level 1

Pre-Intermediate — A2/B1

Intermediate — B1 — ILR Level 2

Upper-Intermediate — B2 — ILR Level 3

Advanced — C1 — ILR Level 4

Proficiency — C2 — ILR Level 5

Bu yildan Oliy o‘quv yurtlariga imtihon topshirganda CEFR yoki Chet tilini bilish darajasi testidan tegishli sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarimizga imtiyozlarga ega bo‘lishi katta yangilik bo‘ldi. Chet tilini bilish darajasi nimalardan iborat va qanday tartibda o’tkaziladi? Ushbu maqolamda yuqoridagi savollarga javob berishga harakat qilaman.

CEFR imtixonи IELTSdan farqli o’laroq 5ta bo’limdan iborat. Ular:

Tinglab tushunish (Listening) bo’limi: eshitilgan audiomatnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko’nikmalari tekshiriladi.

O’qib tushunish (Reading) bo’limi: har xil janrlardagi autentik matnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko’nikmalari tekshiriladi.

Leksik va grammatik kompetensiyalar (Lexical Grammatical Competence) bo’limi: leksik va grammatik birliklarni kontekstda to’g’ri qo’llay olish ko’nikmalari tekshiriladi.

Yozish (Writing) bo’limi: berilgan vaziyat yoki mavzu asosida, topshirilayotgan darajaga mos leksika va grammatikani qo’llagan holda yaxlit matn tuza olish ko’nikmalari tekshiriladi.

Gapirish (Speaking) bo’limi: savollarga javob bera olish, og’zaki taqdimot qila olish, muammoga nisbatan o‘z fikrini bildirib asoslab bera olish ko’nikmalarini tekshiradi.



Testning yozma qismi (tinglab tushunish, o'qib tushunish, leksik va grammatik kompetensiyalar, yozish bo'limlari) bir kunda, gapirish bo'limi alohida o'tkaziladi.

Har bir bo'limda maksimal ball 30 ballni tashkil qiladi. Jami maksimal ball: 150 ball. Testdan muvaffaqiyatli o'tish uchun maksimal ballga nisbatan 60% (90 ball) yoki undan yuqori yig'ish kerak.

1. LISTENING

Tinglab tushunish (30 daqiqa / 4 qism / 30 savol)

Tinglab tushunish bolimida har bir matn ikki martadan eshittiriladi va matn eshittirilishidan oldin matnga oid savollar bilan tanishib chiqish uchun 30 soniya vaqt beriladi.

Har bir savol: 1 ball

Maksimal: 30 ball

Davomiylik: 35 daqiqa

Qoshimcha vaqt: 10 daqiqa

2. READING

O'qish 4ta qism va 30ta savoldan iborat bo'ladi.

Davomiylik: 70 daqiqa

Eng katta tekst: 400 ta so'z

Har bir savol: 1 ball

Maksimal: 30 ball

3. LEXIAL AND GRAMMAR COMPETENCE

Leksik va grammatik kompetensiyalar (30 daqiqa / 3 qism / 30savol)

Davomiylik: 30 daqiqa

Har bir savol: 1 ball

Maksimal ball: 30 ball

4. WRITING

Yozish (45 daqiqa / 2 topshiriq)

1-topshiriq: 10 ball

2-topshiriq: 20 ball

Yozma nutq bo'limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida yozma ravishda to'g'ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir.

1-topshiriq: shaxsiy yozishmalar. Nomzod berilgan mavzu va tayanch savollar asosida xat yozishi lozim(60-80 so'z/10 ball) Mavzuda muammo ko'tariladi va xatda ushbu muammo yuzasidan fikr bildiriladi.

2-topshiriq: shaxsiy tajribaga asoslangan insho yozish (120-140 so'z/20 ball). Nomzod tayanch savollar asosida berilgan mavzuda qisqa insho yozishi kerak.





5. SPEAKING

Gapirish (15 daqiqa / 3 qism / 30 ball)

Og'zaki nutq bo'limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida og'zaki tarzda to'g'ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir.

1-qism

Suhbat tarzida talabgorga kundalik mavzularda, shaxsiy hayotiga oid savollar beriladi va talabgor berilgan savollarga tayyorgarliksiz javob bera olishi lozim. Bu qism 4 daqiqa davom etadi.

2-qism

Talabgordan berilgan muammoli vaziyat asosida 2 daqiqali monolog tuzishi talab qilinadi. Talabgor nutqi davomida muammoga o'z yondashuvi (muammoga yechim)ni ifodalashi kerak. Savollar nomzodning shaxsiy hayotiga oid mavzular doirasidan olinadi.

Talabgorga tayyorgarlik uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.

3-qism

Talabgorga 2-qism (monolog) mavzusidan kelib chiqqan holda qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Talabgorga tayyorgarlik uchun vaqt berilmaydi.

Nemis ta'limida bir yil ichida barcha darajalarni tugatish mumkin. Nemis tilida qancha daraja va bir darajadan ikkinchisiga o'tish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi – nemis tilini o'rganishni istaganlar uchun eng qiziq mavzular.

Nemis tilini o'rganish uchun qancha vaqt ketadi?

Nemis tilini o'rganishni istaganlar A0 dan C2 gacha 7 darajani to'ldiradilar. Ushbu darajalar Evropa Ittifoqi standartlariga muvofiq belgilanadi. O'zingizning darajangizni to'g'ri aniqlash va darsni to'g'ri sinfda boshlash uchun boshida joylashtirish testi o'tkaziladi. Yangi boshlanuvchilar to'g'ridan-to'g'ri A0 darajasiga etkaziladi. Biz barcha darajadagi guruhlarni va taxminiy mashg'ulotlar muddatlarini quyida ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz, chunki bu darajalarga qarab qancha muddatda bajarilishi mumkin.

A0 boshlang'ich darajasi: Ushbu daraja eng asosiy kirish darajasidir, unda umuman nemis tilini o'rganishga tayyorgarlik, alifbo, imlo qoidalari va ba'zi o'ziga xos naqshlar ta'kidlangan. Ko'pgina kurslarda trening to'g'ridan-to'g'ri A1 darajasidan boshlanadi, ammo A1 ga o'tish uchun siz bilishingiz kerak bo'lган ba'zi narsalar mavjud.

A1 boshlang'ich darajasi: Ushbu darajadagi standart kurs guruhi haftasiga 20 soatlik mashg'ulot bilan taxminan 8 hafta ichida yakunlanadi. Intensivkurs guruhidagi haftasiga 30 ta dars taxminan 60 hafta ichida yakunlanadi.



A2 boshlang'ich nemis darajasi: Ushbu darajadagi guruhda standart kurs guruhi taxminan 20 hafta oxirida haftasiga 8 soatlik mashg'ulot bilan yakunlanadi va Intensiv kurs guruhi taxminan 30 hafta ichida haftasiga 6 ta dars bilan yakunlanadi.

B1 O'rta nemis darajasi: Ushbu darajadagi guruhda jarayon A1 va A2 darajalaridagi kabi ishlaydi.

B2 Germanianing yuqori va o'rta darajasi: Ushbu darajadagi guruhda standart kurs guruhi taxminan 20 hafta oxirida haftasiga 10 soatlik mashg'ulot bilan yakunlanadi va Intensiv kurs guruhi taxminan 30 hafta ichida haftasiga 6 ta dars bilan yakunlanadi.

C1 rivojlangan nemis darajasi: Kurs guruhini tugatishning standart vaqtি ushbu guruh talabalari uchun har xil bo'lishi mumkin bo'lsa-da, Intensiv kurs guruhi mashg'ulotlari 6 hafta davomida yakunlanadi.

C2 nemis tilini bilish darajasi: Bu nemis tili darajalarining so'nggi guruhi. Ushbu guruhdagi mashg'ulotlarning davomiyligi shaxslarning individual ko'rsatkichlariga qarab farq qiladi.

Oliy ta'lif maskanlarida o'qitilayotgan nemis tili o'quv rejasida pedagogika, psixologiya va metodika fanlari o'quv soatlarini yanada ko'paytirish kerak. Bu o'qituvchi uchun juda zarur bo'lgan kasbiy tayyorlarlikni kafolatlaydi. Shu sababdan nemis tili o'qituvchilari tayyorlash vazifasi asosan pedagogika universiteti va institutlari zimmasiga yuklatilmog'i lozim. Biroq, afsuski, ayni paytda ahvol teskari. Yetakchi hisoblanmish Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (TDPU)da Germanianing Frayburg va Haydelberg pedagogika universitetlari bilan hamkorlik shartnomalari bo'la turib, nemis tili bo'limi va kafedrasи 2016 yili tugatilgan. Yurtimizda nemis tili o'qituvchilari tayyorlash ham nopedagogik, jumladan, filologik yo'nalishdagi oliy ta'lif muassasalariga yuklatib qo'yilgan. Mamlakatga esa filolog va tarjimonlardan ko'ra, maktablar, akademik litsey uchun ko'proq o'qituvchi kadrlar kerak! Qator viloyatlar (Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston) dagi universitetlarning nemis tili bo'limlari va kafedralarida nemis tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasidan mutaxassislashmagan, ilmiy darajalari va unvonlari yo'q o'qituvchilar ishlamoqda. Bu esa sifatsiz ta'lif va olmon tili bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega bo'lman mutaxassislar deganidir.

Shundan kelib chiqib, mutasaddi idoralar O'zbekistonda nemis tilini o'qitish borasidagi ishlarni qayta ko'rib chiqadilar, degan umiddamiz. Nemis tiliga munosib e'tibor, baho va ahamiyat berib, uning yurtimizda o'qitilayotgan chet tillar ichidagi ulushini ko'taradilar. Bu esa nemiszabon mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada yuqori pog'onaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Ishonch bilan





ta'kidlab o'ta olamizki, O'zbekiston Germaniya federativ respublikasi bilan ta'lif sohasida bo'lgan ilmiy-pedagogik aloqalari yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Braun Peter: « Tendenzen in der deutschen GegenwartsSprache» Stuttgart 1993.
- 2.Duden: Deutsche Universalbuch. Mannheim 2003.
- 3.Deutschland, N3, 19.Mai 2006.
- 4.www.wikipedia.uz
- 5.ziyo.uz



Emotsional zo'riqishining psixodiagnostikasi va psixokoreksiyasi

Qobilov Husniddin

Qarshi davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Ergasheva Izzat

Yusupova Go'zal

Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumani

53-umumi o'rta ta'lif maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda emotsional zo'riqishining psixodiagnostikasi va psixokoreksiyasi mavzusiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirilgan. Maqola so'ngida xulosa hamda takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, emotsional zo'riqish, psixodiagnostika, miya faoliyati.

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli bo'lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. O'zgarishlar o'z navbatida, birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashishi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyojlarning paydo bo'lishiga yoki yo'qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. His-tuyg'ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida shartsiz va shartli reflekslar xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim sharlari po'stida yuzaga keladi hamda shu joyda mustahkamlanadi. Murakkab shartsiz reflekslar esa:

- 1) yarim sharlaming po'stloq osti bo'shliqlari;
- 2) miyadagi ko'rish do'ngliklari;
- 3) nerv qo'zg'alishlarini miyaning yuqori bo'linmalaridan vegetativ tizimiga o'tkazib beruvchi markazlari orqali amalga oshiriladi. Shaxsda his-tuyg'ularning kechishi hamisha miya po'sti bilan po'stloqosti markazlarining birlikdagi (hamkorlikdagi) faoliyati natijasida ro'yobga chiqadi.

Hozirgi zamonda "salomatlik" tushunchasi Butunjahon sog'likni saqlash tashkilotining tushunchasiga asosan, "organizmning to'liq jismoniy, ruhiy, jismoniy salomatligi bo'lib, nafaqat kasalliklarning bo'lmasligi, balki jismoniy nuqsonlarning ham bo'lmaslidir". Kasallik- inson hayat faoliyatining buzilishi bilan xarakterlanadigan holat bo'lib, organizmning vaqtincha yoki doimiy ish faoliyatining pasayishiga olib keladi. Albatta kasallikning kelib chiqishida organizm holati, yoshi, yo'ldosh kasalliklarning bor-yo'qligi, organizmga kasallik chaqiruvchi



mikroorganizmlarning qancha miqdorda tushishi, irsiy moyillikning bo'lishi, organizmning reaktivligi muhim ahamiyatga ega. Albatta uzoq-umr ko'rishning bir qancha shartlari bor, agarda odamzot shu shartlarga rioya qilsa, o'z oldiga qo'ygan oly maqsad-uzoq umr ko'rishga zamin yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

Noto'g'ri ovqatlanish. Salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri noto'g'ri, muvofiqlashmagan va tartibsiz ovqatlanish hisoblanib, organizm normal faoliyatining buzilishiga va turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi Gipodinamiya- (yunoncha-gipo-kam, past va dinamic-kuch) mushaklarining yetarli ishlamasligi, qisqarish kuchining kamayib ketishi bo'lib, odatda, doimo o'tirib ishslash, piyoda yurishni yig'ishtirib, transportda ketish, kamharakatlik, umuman, mushaklarga tushadigan og'irlikning kamayib qolishi tufayli kelib chiqadigan gipokineziya, ya'ni odam harakat faolligining kamayib ketishi bilan birga davom etadi.

Harakat va salomatlik. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olishning asosiy yo'li to'g'ri tashkil etilgan jismoniy faollikdir. Harakat natijasida odamning turli a'zo va tizilmalarining faoliyati me'yorlashadi, buzilgan faoliyatları esa tiklanadi, aqliy va jismoniy mehnatga bo'lgan faolligi oshadi. Zararli odatlar: alkogolizm - ashaddiy ichkilikbozlik, ayrim kishilarning o'z salomatligi va mehnat qobiliyatiga shuningdek, jamiyat farovonligiga zarar yetkazadigan darajada, muntazam ravishda me'yordan ortiqcha spirtli ichimliklar ichishi hisoblanadi. Tamaki chekish - kishi sog'lig'iga jiddiy putur yetkazadigan eng zararli odatlardan biridir. Nikotin markaziy va periferik nerv sistemasiga vaqtincha qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi, arterial qon bosimini oshiradi, mayda tomirlarni toraytiradi; nafasni tezlashtiradi, ovqat hazm qilish sistemasining shirasini ko'paytiradi. Nikotin bilan birga tamaki tutunidagi yonish mahsulotlari ham organizmni zaharlaydi. Shuning uchun chekmaydigan kishilarning chekilgan xonada bo'lishi ham zararlidir. Tarkibida yonish mahsuloti bo'lgan tutun nafasga olinganda arterial qondagi kislородни kamaytirib yuboradi. U bronxlarning shilliq pardasiga ta'sir ko'rsatib surunkali bronxit va o'pka emfizemasiga sabab bo'ladi. Narkomaniya-(yunoncha-narke - karaxtlik va mania - telbalik, jahl, shod-xurramlik), bangilik, giyohvandlik-narkotik va narkotik ta'sirga ega moddalarni suiste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallikdir. Ushbu xastalik bilan og'igan kishining jismoniy va ruhiy holati xumorini bosadigan narkotik modda iste'mol qilishiga bog'liq. Quyidagi ikki holatda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin:

Ruhiy-emotsional zo'riqishlar - hozirgi davrda kishilar salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Odam organizmining normal faoliyati, uning ruhiyati qay darajadaligiga bog'liq. Ruhiyat va kayfiyatdagi har qanday o'zgarishlar



a'zo va sistemalarning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Odamning ruhan ezlishi, ko'ngliga og'ir botadigan kechinmalar va hayotdagi turli salbiy voqealar zo'riqishlarga olib keladi. Ruhiy-emotsional zo'riqishlar natijasida odamlarda gipertoniya, stenokardiya va miokard infarkti, qolaversa, ruhiy kasalliklar, zararli odatlarga ruju qo'yish kelib chiqadi. Ayollarda esa ruhiy-emotsional zo'riqishlar ayniqsa, homiladorlik davrida, uning dastlabki 3-oyida o'ta xavfli asoratlarga sabab bo'lishi mumkin. Aholi turmushining yaxshilanishi, ijtimoiy sharoitning barqarorlashishi ruhiy-emotsional zo'riqishlarning oldini olishning asosiy shartlaridandir.

Turmush tarzi - bu insonning aniq jamiyatda, muhitda ifodalangan hayot, mehnat, dam olish va hokazolarini o'z ichiga olgan tushunchadir. Uning tarkibiy qismlariga faqat ijtimoiy-siyosiy va ishlab chiqarish faoliyatigina emas, balki ishlab chiqarishdan tashqari vaqtdagi faolligi, ijtimoiy-madaniy faoliyati ham kiradi. Tibbiy faollik ham uning bir turidir. Turmushda odam turli xil salbiy taassurotlar, nojoya holatlar va sharoitlarga tushib qolishi mumkin. Bular esa, o'z navbatida, salomatlik va turmish tarzini sog'lomlashtirish haqida to'la bilimga ega bo'lishga majbur qiladi, aholining o'z salomatligiga bo'lgan munosabatlarini tarbiyalash va tibbiy bilimlarni targ'ib qilishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan salomatlikka qarshi omillar haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni bartaraf etish, har bir kishining bevosita o'ziga bog'liq. Buning uchun esa sog'lom turmush, uning tarkibiy qismlari nimalardan iboratliligi haqida aholi orasida tushuntirish ishlari olib borish lozim. Albatta pedagogik tarbiyaning asosiy maqsadi-nafaqat yoshlarga tarbiya berish, balki ta'lif ham berishdan ham iboratdir. Turmush tarzining nosog'lom bo'lishi ishsizlik, kam ta'minlanganlik, etimlilik va boshqalar) yoshlar orasida kasalliklarning tez va keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Yoshlar orasida surunkali kasalliklar ko'rsatkichlarining ko'payishi ular orasida tibbiy yordam ko'rsatishning keng tarmog'li olib borish kerakligini ko'rsatib turibdi: har bir talaba o'z-o'ziga yordam, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, ekstremal holatlarda, favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatishni bilishi kerak. Tabiiy, texnogen, ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar yoshlar, qolaversa aholi orasida turli darajadagi shikastlanish, jarohatlar, zaharlanish, yuqumli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu holatda har bir kishidan tezlik bilan o'z-o'ziga va o'zaro yordam berish kerakligini talab etadi. Faqatgina aholining salomat va ma'lumotli bo'lishigina mamlakatning rivojlanishiga va mudofaasiga salmog'li hissa qo'shami. "Stress" inglizcha so'z bo'lib tanglik, zo'riqish, bosim degan ma'nolarni anglatadi. Oddiy tilda tushkunlikka tushish, deyiladi. Bu ba'zida oz fursat, ba'zida uzoq vaqt kechishi mumkin. Ikkala holatda ham insonga zarar yetkazadi. Ya'ni, aqliy faoliyatning susayishi, yurak urishi tezlashishi, qon tomirlari kengayishi, ichki



kasalliklar - oshqozonda yallig‘lanishlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Stressning salbiy tomonlaridan yana biri miyani tormozlab, ma’nosiz fikrlaydigan darajaga tushirib qo‘yishi mumkin. Agar odam tez-tez tushkunlikni boshidan kechirsa, atrofdagilar bilan gaplasha olmaydigan holatga tushadi. Stress natijasida inson o‘ziga past baho bera boshlaydi. Oqibatda o‘zini yolg‘izdek, yaqinlariga keraksizdek his qiladi. Sekin-asta ruhiy tetiklik yo‘qola boshlaydi. Stressning ilk belgilari qanday namoyon bo‘ladi? Uning fiziologik va psixologik turlari mavjud. Bir narsadan qattiq qo‘rqib ketish, kutilmaganda avtohalokat yoki tabiiy ofatga uchrash, tanasidagi birorta kasallik oqibatini bilib qolish, to‘satdan yaqin kishisini yo‘qotish fiziologik stressni keltirib chiqaradi. Psixologik stress - insonning emotsional holati bilan bog‘liq. Bu ko‘proq qaynona-kelin, er-xotin yoki ona va bola o‘rtasidagi mojarolar tufayli kelib chiqadi. Uzoq vaqt birga bo‘lgan sevgilisidan ajralish yoki to‘satdan ishdan bo‘shatilish holatlari ham psixologik stressni keltirib chiqaradi. Har ikki holat insonni ham tashqi qiyofasiga, ham ichki dunyosiga ta’sir ko‘rsatadi va albatta, asoratlari bo‘ladi.

REFERENCES

1. Гайбуллаев, А. А. Психология: происхождение и структура научного факта. Вестник интегративной психологии, 19(19), 115-119.
2. G‘aybulloyev, A. A. (2021). Sportchilarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishining psixologik mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali, 92-96.
3. Abdurozikovna, S. D. (2014). Social intelligence: general defining moment. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, (3-4), 154-155.
4. Сабирова, Д. А. (2016). Олий таълим муассасаларида масофавий таълимни жорий этиштехнологиялари. Современное образование (Узбекистан), (11), 14-20.
5. Гайбуллаев, А. А. Психология: происхождение и структура научного факта. Вестник интегративной психологии, 19(19), 115-119.




**YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI MAVZUSINI KLASTER
VOSITASIDA NAZORAT QILISH**

Jo‘rayeva Ramziya Abduraximovna
Qo‘qon DPI o‘zbek tili kafedrasи dotsenti, (PhD)
Tolipova Zahroxon Xoshimjon qizi
Qo‘qon DPI talabasi

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir, bu talabni yuzaga keltirishda pedagogik texnologiyalar to‘la ishonchli vosita bo‘la oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda, bizning ishimiz ham shu sohada olib borilgan ishlarni boyitishga yordam beradi, deb ayta olamiz.

1 - topshiriq. So‘z turkumlari bo‘yicha guruahlarga ajrating. 1.Ot.2.Sifat. 3.Son. 4. Ravish. 5. Yuklama. 6.Modal so‘z. 7.Fe'l. 8. Ko‘makchi 9. Taqlid so‘z. 10.Bog‘lovchi. 11.Olmosh. 12.Undov so‘z.




Klasterning javobi:

Mustaqil so‘z turkumlari – 1,2 ,3,4, 7,11.

Mustaqil so‘z turkumlari– 5, 8, 10.

Oraliq so‘z turkumlari – 6.9.12

2-topshiriq. Yordamchi so‘z turkumlari haqidagi bilimlaringizga asoslanib klaster tuzing.



Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?

A. Sh.Rahmatullayev ko‘makchini leksemashakl tarkibiga



- kiradigan morfema deb, noperadigmatik morfemalar majmui deb baholadi.
- B. modal so‘zlar, undovlar, taqlid so‘zlari yordamchi so‘zlarga kiritiladi.
- C. Bog‘lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko‘ra teng bog‘lovchilar va ergash bog‘lovchilar deb ikkiga guruhlanadi.
- D. Ko‘makchilar presuppozitsiyasi xususida Burxonov tadqiqot olib borgan.
- E. Bog‘lovchilar presuppozitsiyasi haqida A.Pardayev tadqiqot olib borgan.
- F. Yuklamalar presuppozitsiyasi tadqiq etilmagan.

Javoblar:

A	B	C	D	E	F
Ha	Yo‘q	Ha	Ha	Ha	Yo‘q

1. Ko‘makchilarni _____ bilan erkin almashinib sinonim sifatida qo‘llash mumkin.

2. Yordamchi so‘z tarkumlari _____ ma’no ifodalaydi.

Javobi:

1.Ko‘makchilarni **kelishiklar** bilan erkin almashinib sinonim sifatida qo‘llash mumkin.

2. Yordamchi so‘z tarkumlari **grammatik** ma’no ifodalaydi.

2-darajali test namunalari

O‘zbek tilida yordamchi so‘z tarkumlari sohasida faoliyat olib borgan olimlarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tarafiga yozing.

- 1) A.Pardayev 2) Z.Burxonov 3) O.Bozorov 4) Z.Isaqov
5) Rustamov 6) R.Rasulov 7) U.Rahimov 8) M.Mirtojiyev

Yo‘nalishlar	Javob raqamlari
Ko‘makchilar	2, 4, 7, 8
Bog‘lovchilar	1, 3, 5, 6
Yuklamalar	

4. Turli ko‘rinishdagi jadvallar asosida nazorat qilish

Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalarning o‘zaro zidlanish asoslari

Zidlanish Asoslari	Ko‘makchi	Bog‘lovchi	Yukla ma
Tenglashish sintaktik aloqasini ta’minlash			



.	Tobelashish sintaktik aloqasini ta'minlash			
.	Kelishik qo'shimchalari bilan vazifadoshlik			
.	Modal ma'no ifodalash			
.	Ma'lum kelishik shaklidagi so'zlarni boshqarish – boshqarmaslik			
.	Turlanishga moyilliklik			
.	Grammatik ma'no ifodalash			
.	Birikma yoki gap tarkibida ma'no va vazifasini yuzaga chiqarishda shakliy qiymati bilan muntazam ishtirok etishetmaslik			
.	Mustaqil so'zlarning lug'aviy ma'nosini shakllantirish			

Jadvalning javobi

Zidlanish Asoslari	Ko'mak chi	Bog'lov chi	Yukla ma
Tenglashish sintaktik aloqasini ta'minlash	-	+	-
Tobelashish sintaktik aloqasini ta'minlash	+	+	-
Kelishik qo'shimchalari bilan vazifadoshlik	+	-	-
Modal mahno ifodalash	-	-	+
Mahlum kelishik shaklidagi so'zlarni boshqarish – boshqarmaslik	+	-	-
Turlanishga moyilliklik	+	-	-



.	Grammatik mahno ifodalash	+	+	-
.	Birikma yoki gap tarkibida mahno va vazifasini yuzaga chiqarishda shakliy qiymati bilan muntazam ishtirok etish-etmaslik	+	-	+
.	Mustaqil so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini shakllantirish	+	-	-

5. Talabalarining matn bilan ishlash va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun mashq.

“Mehrobdan chayon” romanidan olingan ushbu matnda qo‘llangan yordamchi so‘z turkumlariga izoh yozing.

AMIR UMARXONNING KANIZI


Solih maxdum 1230-1290-nchi hijriy yillarda “Ho‘qandi firdavsmonand”da yashag‘an bir muallim va imom, o‘z zamonasining istilosini bilan aytkanda “maktabdor domla”dir. Solih maxdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub bo‘lib, bobosi Olimxon va Umarxon davrlarida muftilik, qoziliq mansablarida xizmat qilg‘an, otasi ersa Qo‘qonning Madali (Muhammadali) xon madrasasida necha yillar mudarris bo‘lgandir. Qisqasi maxdumning ota-bobolari xonlar qoshida mumtoz va xalq nazarida “sharaflik va muhtaram” mavqi‘ni ushlab kelganlar. Biroq bu mumtoz silsila bizning maxdumgacha yetib kelalmay, Mamadalixonning qatli bilan birga kesilgan, buning mojarosi ersa quyidag‘ichadir: Turkiston xonlig‘i tarixidan xabardor kishilarga ma’lumdirkim, Amir Umarxon oxir umrida o‘z saroyidagi yosh kanizlardan biriga muhabbat qo‘yadir. Kaniz yosh bo‘lg‘anlig‘i va balog‘atka yetmaganligi uchun uni nikohiga ololmay vaqt kutadir. Shu kutib yurish yillarda Umarxon murodiga yetalmay vafot qiladir, boyag‘i kaniz qiz balog‘atka erishadir va bir husniga o‘n husn qo‘shilib otaning bolasi bo‘lg‘an Madalixonni ham o‘ziga oshiq qiladir. O‘z saroyida o‘skan bu qizni yosh xon hamisha ko‘z o‘ngida yuritsa ham biroq... tarixning bizga xabar berishiga qarag‘anda Madalixon shu qizning dardida necha yillar yonadir. Chunki ulamolar bu go‘zalni Madaliga ona maqomida hisoblab, nima uchundir xonning orzusig‘a ko‘ndalang keladilar: “Otangiz, agarchandi kanizni o‘z nikohlariga olmag‘an bo‘lsalar ham va lekin balog‘atka erishkach olarman deb niyat qilg‘anlar. Binobarin, bu kaniz sizga ona maqomida, shariat ruxsat bermaydir!” deydirlar.



1. Yuklamalar _____
2. Bog'lovchilar _____
3. Ko'makchilar _____

6. Jarayonlarning ketma ketligini aniqlash uchun topshiriqlar.

2 – topshiriq. Yordamchi so'z turkumlarini ketma – ketlik zanjirini tuzing.



1. va 2.-ku 3.-u,-yu 4.xolos 5.bilan 6.-da 7.nahotki 8.ham 9. faqat 10.hamda

2 – topshiriqning javobi: 1; 5; 3; 6; 8; 10;


3 – topshiriq. Ko'makchilarning ma'nolarini o'sish tartibida joylashtiring.

-dek → o'xshash → taxlit → -day → misli → bamisli → xuddi → naq → -dayin yanglig' → misoli → bamisoli → misol → monand → kabi → singari → deganidek

3-topshiriq javobi: kabi → singari → -dek → -day → yanglig' → misoli → bamisoli → misli → bamisli → xuddi → naq → -dayin → misol → o'xshash → taxlit → monand → deganidek

Obyektlarni taqqoslash uchun Venn diagrammasi

Yordamchi so'z turkumlarining xususiyatlarini taqqoslang va Venn diagrammasida ifoda eting.





Tavsiya qilingan texnologiyalar ta'lif va tarbiya jarayonida pedagoglar tomonidan interfaol metodlarning o'rinni, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lif oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.





Shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari

Ilmiy raxbar : O'zbekistoz Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

dotsenti Alimardonov Zohid Shukurullayevich,

Kursant: Dadilov Doniyor Baxtiyor ö'gli

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishi va rivojlanish, kamolot yetuklik kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Shuningdek, rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Bolaning individual rivojlanishi va yosh xususiyatlariga bog'liq o'zgarishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Individ, shaxs, individuallik, rivojlanish, xulq-atvor, dunyoqarash, psixika, kamolot, yetuklik, yetilish, o'sish, ontogenetika, intellekt, ijtimoiylashuv.

Asosiy qism

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. SHaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologikjihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

“Individ” nima? Bola ma'lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individuum” so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individualllik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatları, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Rivojlanish - bu bir holatdan boshqa murakkabrog'iga o'tish, eski holatdan yangi sifat bosqichiga o'tish, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o'tish jarayonidir.

Psixikaning rivojlanishi - psixik jarayonlarning miqdor, sifat va tuzilishi bo'yicha qayta o'zgarishlarda namoyon bo'ladigan vaqt bo'yicha qonuniy o'zgarishidir. O'sish - rivojlanish jarayonining miqdor jihat. Rivojlanishning o'sishdan asosiy farqi



quyidagicha: o'sish miqdor o 'zgarishlariga, rivojlanish esa yangi tuzilmalar, mexanizmlar, jarayonlar, strukturalarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladigan sifat o'zgarishlariga taalluqlidir.

Rivojlanish va yetilish tushunchalarini ham bir-biridan farqlash zarur. Bir qator yosh psixologiyasidagi xorijiy nazariyalar uchun yetilish - rivojlanishning muhim omili, u yoki bu yutuqlarning sababidir. Zamonaviy rus rivojlanish psixologiyasida yetilish markaziy nerv sistemasi va boshqa organizm sistemasida ketma-ket yosh o'zgarishlarining psixofiziologik jarayoni, psixik funksiyalarning vujudga kelishi va amalga oshishi uchun sharoitning ta'minlanishi sifatida qaraladi.

Kamolot, yetuklik tushunchalari bilan yosh davrlari psixologiyasining aso-siy tamoyillaridan biri - geteroxron rivojlanishga bog'liq. U inson shart-sharoit, ijtimoiy muhit, individual xususiyatlar ta'sirida turli yosh davrlarida yetuklikka erishishni tavsiflaydi. Bu esa turli yosh davrlari o'zining betakror psixofiziologik tuzilishidan darak beradi va shu yosh davrini psixologik imkoniyatlari potensialini belgilaydi.

Rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. U lar quyidagilar:

- sifat jihatdan o'zgarish va yanada mukammalroq bosqichga ko'tarilish;
- rivojlanishni qaytara olmaslik (rivojlanish ro'y bergandan so'ng, avval mavjud bo'lgan narsa-hodisalarni to'laligicha ortga qaytarishning iloji yo'qligi);
- progress va regress elementlarining umumlashmasi (bir sohadagi progressiv rivojlanish, boshqa bir sohadagi regress yuz berishi mumkinligini bildiradi);
- notejis rivojlanish (sifat o'zgarishlarining tezkor o'zgarishi, miqdor o'zgarishi bilan almashadi);

zigzagsimon rivojlanish (yangilanishlarning paydo bo'lganida, natijalar oldingi holatlarga qaraganda, sifat jihatdan yaxshi natija bermasligi. Masalan, bola emaklashdan tik turib yurishga o'tgan davrda, sekin harakatlanadi va jarohatlar olishi mumkinligi ham kuzatiladi);

- rivojlanish darajalaridan bosqichlariga o'tish (yangilanishlar paydo bo'lganda, avval o'zlashtirilgan ko'nikmalar yo'qolib ketmaydi, balki yangilanishlar uchun asos sifatida saqlab qolinadi);

- barqarorlik ko'rsatkichi.

Psixologik rivojlanishning asosiy uch turi mavjud: filogenetik, ontogenetik va funksional.

Filogenez psixikasi - insoniyat tarixida insonning psixik shakllanishi va biologik evolutsiyasi.



Ontogenetik psixikasi - individning butun umri davomida psixologik tuzilishining shakllanishi.

Funksional rivojlanish psixikasi - psixologik funksiyalar, yangilanishlar, yangi intellektual, perseptiv, mnemik, aqliy funksiyalarning paydo bo'lishi. Bu ontogenetik taraqqiyotning bir qismi hisoblanadi.

